

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

«TEXNOLOGIYA» FAKULTETI

«MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI» KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»

«Texnologiya» fakulteti dekani

R. Raximov

« » 2014 y.

«HIMOYAGA QO'YILDI»

«Mashinasozlik texnologiyasi»

kafedra mudiri

X. Akbarov

« » 2014 y.

“ Kasb-xunar kollejida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim
texnologiyalaridan foydalanish yo'llari” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi:

“ Kasb ta'limi” yo'nalishi talabasi

Xakimova Maftuna Komoljon qizi

Ilmiy rahbar:

Andijon Bank kolleji direktori M. To'xtaboyev

Maslahatchi:

asistent. D. Raxmonova

Andijon-2014 yil

Andijon mashinasozlik instituti "Texnologiya" fakulteti "Kasb ta'limi"
yo'nalishi 4-kurs 1-gurux talabasi M. K. Xakimovanning "Andijon Bank
kollejida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan
foydalanish yo'llari" mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Respublikamizning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin olish uchun ma'naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun yoshlarimiz dunyoqarashini o'zgartirish, ularning bilim va ma'naviyatlarini jahon andozalari darajasiga ko'tarish zarur. Bugungi texnika rivojlanib borayotgan davrda o'quvchilarni zamon talablariga mos, har tomonlama yetuk bilimli, zukko, qobiliyatli qilib tarbiyalash eng dolzarb vazifalardan biri ekanligini ko'rib o'tildi.

Talaba tomonidan bajarilgan "Andijon Bank kollejida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflardan tashkil topgan.

Birinchi bob "Ta'lim jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning nazariy – uslubiy asoslari" deb nomlangan, ushbu bobda muammoli ta'lim texnologiyasining mazmuni nazariy jihatdan yoritilgan.

Ikkinchi bob "Andijon Bank kollejida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning holati tahlili" deb nomlanib, kollej ta'limi faoliyatiga baxo berilgan, xamda ta'lim jarayonida ta'lim texnologiyasidan foydalanish holati tahlil qilingan.

Uchinchi bob "Andijon Bank kollejida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish yo'llari" bo'lib, ushbu bobda ta'lim texnologiyasini rivojlantirish va uning istiqbollari o'ld takliflar berilgan.

Xulosa va takliflar qismida talaba tomonidan kollej ta'limida muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish yo'llari va uni takomillashtirishga doir takliflar berib o'tilgan.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishda talaba Prezidentimiz I.A.Karimov asarlaridan, nutqlaridan, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, me'yoriy xujjatlaridan foydalana olgan. Bitiruvchi talaba biruv malakaviy ishida mamlakatimiz olimlari bilan bir qatorda xorijlik olimlar tomonidan yozilgan adabiyotlardan xamda internet ma'lumotlaridan xam keng foydalanishga erishgan.

Bitiruv malakaviy ishi qo'yilgan barcha talablarga javob beradi, Yakuniy Davlat Attestatsiya komissiyasiga himoya qilishga tavsiya etiladi.

Ilmiy maslaxatchi:



assistent D. Raxmonova

«TASDIQLAYMAN»
«Andijon Bank kolleji» direktori
M. To'xtaboyev
«___»___2014 y.

«TASDIQLAYMAN»
«And MI ilmiy ishlar bo'yicha
prorektor ___B. Mamajonov
«___»___2014 y.

Ilmiy-tadqiqot ishlarining ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbqiq etilganligi haqida

D A L O L A T N O M A

Andijon shahar

Bizlar, Andijon mashinasozlik instituti "Texnologiya" fakulteti "Mashinasozlik texnologiyasi" kafedrasidan X. Akbarov, M. To'xtaboyev, D. Raxmonova, M. Xakimovalar bir tomon, Andijon Bank kolleji Kasbiy ta'lim ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari G.Xamroqulova, D.Aloxunova, M.To'rayeva ikkinchi tomon bo'lib, ushbu dalolatnomani shu haqida tuzdikki,


1. "Andijon Bank kollejida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ta'lim tarbiya jarayoniga tadbqiq etildi.

2. Ishlanmani tadbqiq etish natijasida quyidagilarga erishildi:

- Ta'lim jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-uslubiy asoslari o'rganildi.
- Andijon Bank kollejida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning holati tahlili qilindi.
- Andijon Bank kollejida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish yo'llari ishlab chiqildi.

3. **Tomonlarning fikrlari:** Bitiruv malakaviy ishining ilmiy jihatlari o'rganildi, amaliyotga tadbqiq etish tavsiya qilindi.


Qabul qiluvchi tomon vakillari:


G.Xamroqulova

D.Aloxunova

M.To'rayeva

Topshiruvchi tomon vakillari:


X. Akbarov

M. To'xtaboyev

D. Raxmonova

M. Xakimova

Andijon mashinasozlik instituti "Texnologiya" fakulteti "Kasb ta'limi" yo'nalishi 4-kurs 1-gurux talabasi M. K. Xakimovaning "Andijon Bank kollejida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari" mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Xozirgi kunda oliy ta'limning amaliy ahamiyatini ifodalovchi omillar sifatida e'tirof etilayotgan jarayonlar oliy ta'limda ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish va samaradorligini oshirish omillari xisoblanib, oliy ta'lim talabalarining amaliy ishlari va ilmiy-tadqiqot ishlariga kiritilgan kasb-xunar talabalarini mustaqil ishlarini bajarish va o'zlashtirish darajasini yaxshilanishi kabi omillar oliy ta'limning muhim tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi. Jumladan, ushbu ta'limda malakali raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish tizimi sifatini oshirish masalasi xozirgi kundagi ta'limning asosiy tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda.

Yuqoridagi kasb-xunar ta'limida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish masalalariga doir natijalar keltirilgan, ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati hamda ilova qismlaridan tashkil topgan.

Birinchi bob "Ta'lim jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning nazariy – uslubiy asoslari" deb nomlangan, ushbu bobda muammoli ta'lim texnologiyasining mazmuni nazariy jihatdan yoritilgan.


Ikkinchi bob "Andijon Bank kollejida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning holati tahlili" deb nomlanib, kollej ta'limi faoliyatiga baxo berilgan, uning ta'lim texnologiyasidan foydalanish holati tahlil qilingan.

Uchinchi bob "Andijon Bank kollejida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish yo'llari" bo'lib, mavzu bo'yicha takliflar bergan.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishda talaba Prezidentimiz I.A.Karimov asarlaridan, nutqlaridan, O'zbekiston Respublikasining qonunlari, me'yoriy xujjatlaridan foydalana olgan. Bitiruvchi talaba biruv malakaviy ishida mamlakatimiz olimlari bilan bir qatorda xorijlik olimlar tomonidan yozilgan adabiyotlardan xamda internet ma'lumotlaridan xam keng foydalanishga erishgan.

Bitiruv malakaviy ishi qo'yilgan barcha talablarga javob beradi, Yakuniy Davlat Attestatsiya komissiyasiga himoya qilishga tavsiya etiladi.

Andijon Politexnika kasb-xunar
kollej direktori:



v.v.b D. Yusupova

Andijon mashinasozlik instituti "Texnologiya" fakulteti "Kasb ta'limi" yo'nalishi 4-kurs 1-gurux talabasi M. K. Xakimovanning "Andijon Bank kollejida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari" mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga rahbar

XULOSASI

Kasb - xunar ta'limida dars mashg'ulotlarini tashkil etishning omillari, sharoitlari, ta'lim usullari, o'qitishni ilmiy asosda tashkil etish, kollej o'quvchilarida kasbiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, o'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish holati yuzasidan tahlil natijalarini keltirish, kollej ta'limida o'quv jarayonining sifatini oshirishga nisbatan amaliy takliflarni kiritish, ta'limni rivojlantirishning muhim omillari sifatida e'tirof etiladi. Bu borada mamlakatimizda malakali kadrlar tayyorlashning raqobatbardoshligini ta'minlovchi omillar sifatida milliy ta'lim tizimida o'qitishni texnologiyalashtirish va o'quv jarayoni mazmunini boyitish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Yozilgan bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligidan kelib chiqib olingan ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish darajasini shakllantirish va ta'lim samaradorligini oshirishning masalalariga oid Prezidentimiz Islom Karimovning "bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim-tarbiyasini ko'rgan yoshlar kerak" deb ta'kidlagan mulohazalari xam oliy ta'lim tizimida talabalarning amaliyotdagi tajriba sinov ishlari va bitiruvchi kurs talabalarining ilmiy tadqiqot ishlari bo'lgan bitiruv malakaviy ishlari samaradorligini oshirish masalalari ahamiyatini oshiradi.

Yuqoridagi maqsad yo'nalishlarini o'z ichiga olgan Andijon Bank kolleji ta'lim jarayonida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob yettita paragraflar, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati hamda ilovalar qismidan iborat bo'lib, ishning:

birinchi bobi "Ta'lim jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning nazariy – uslubiy asoslari" deb nomlangan, ushbu bobda ta'lim

texnologiyasining mazmuni va iqtisodiy fanlarni o'qitishdagi o'rni va ahamiyati nazariy jihatdan yoritilgan;

ikkinchi bob "Andijon Bank kollejida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning holati tahlili" deb nomlanib, kollej ta'limi faoliyatiga baho berilgan, xamda ta'lim jarayonida muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish holati tahlil qilingan;

uchinchi bob "Andijon Bank kollejida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish yo'llari" bo'lib, ushbu bobda ta'lim texnologiyasini rivojlantirish va muammoli ta'lim texnologiyasi istiqbollari belgilovchi omillar keltirilgan va takliflar berilgan;

Xulosa va takliflar qismida kollej ta'limida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasining afzalligi yuzasidan takliflar berib o'tilgan.

Xakimova Maftuna bitiruv malakaviy ishini bajarish davrida o'zini ijobiy tomondan ko'rsata oldi, mazkur bitiruv malakaviy ishi qator ijobiy jixatlar bilan birga ayrim kamchiliklardan xoli emas, shuningdek:

- ishning ikkinchi bobidagi tahlil natijalari kengroq o'rganilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi;
- ishdagi ayrim texnik xato va kamchiliklar bartaraf etilishi lozim;

Yuqoridagi keltirilgan kamchiliklar bitiruv malakaviy ishi sifatini va ilmiyligini pastaytirmaydi. Talaba M. Xakimovanning "Iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi talab darajasida ekanligini ijobiy baholab, Yakuniy Davlat Attestasiya komissiyasi oldida himoya qilishiga tavsiya etaman.

Ilmiy raxbar:



Andijon Bank kolleji direktori
M. To'xtaboyev

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
«TEXNOLOGIYA» FAKULTETI
«MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI» kafedrası,
«KASB TA'LIMI» yo'nalishi 4-kurs 1-guruh

«TASDIQLAYMAN»

kafedra mudiri

X. Akbarov

«__»__ 2014y.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba Xakimova Maftuna Komoljon qizi

1. **Bitiruv ishinining mavzusi:** "Kasb-hunar kollejida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari" «4» dekabr 2013 y. Kafedraning 4- sonli majlisida ma'qullangan.

2. **Bitiruv ishini topshirish muddati** « 12 » may 2014 y.

3. **Bitiruv ishini bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar:** Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Prezident farmonlari, Andijon Bank kolleji xisobotlari va boshqalar.

4. **Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yhati):**

1. Ta'lim jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning nazariy- uslubiy asoslari o'rganildi.

2. Andijon Bank kollejida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning holati tahlil qilindi

3. Andijon Bank kollejida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatib berildi.

5. **Chizma ishlar ro'yhati (nomi aniq ko'rsatiladi):**

1.1-chizma. Pedagogik texnologiya tuzilishi

1.2-chizma O'qitish texnologiyasining tuzilishi

1.3-chizma Pedagogik texnologiya tarkibiy qismlari

2.1-jadval Muammoli ta'lim darajalari

1.1-jadval Andijon Bank kolleji boshqaruv faoliyati

1.2-jadval Andijon Bank kolleji mutaxassisliklar bo'yicha talabalar kontingenti

1.3-jadval Kollejda o'qitayotgan fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlar ta'minoti

1.4-jadval Kollejda o'quv fanlar mazmunini tashkil etuvchi ta'lim vositalar holati

2.1-jadval Dars texnologiyasining moduli

2.2-jadval Darsning texnologik xaritasi

2.1-diagramma. Moliya yo'nalishi 125-guruh talabalari o'zlashtirish ko'rsatkichi

2.2-diagramma. Moliya yo'nalishi 123-guruh talabalari o'zlashtirish ko'rsatkichi

6. Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha maslahatchi(lar)

№	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi F.I.SH	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1	Kirish	M. To'xtaboyev D. Raxmonova	14.12.2013	24.12..2014
2	Ta'lim jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning nazariy – uslubiy asoslari.	M. To'xtaboyev D. Raxmonova	25.12.2013	05.02.2014
3	Andijon Bank kollejida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning holati tahlili	M. To'xtaboyev D. Raxmonova	06.02.2014	13.03.2014
4	Andijon Bank kollejida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish yo'llari	M. To'xtaboyev D. Raxmonova	14.03.2014	08.04.2014
5	Xulosa	M. To'xtaboyev D. Raxmonova	09.04.2014	19.04.2014

7. Bitiruv malakaviy ishini bajarish rejasi

№	Bitiruv malakaviy ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi
1	Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish tarixi va nazariy asoslari	11.01.2014	
2	Muammoli ta'lim texnologiyasi haqida tushuncha	24.01.2014	
3	Iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalarning o'rni va ahamiyati	05.02.2014	
4	Andijon Bank Kollejning pedagogik faoliyati tavsifi	15.02.2014	
5	Andijon Bank Kollejida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish holati tahlili	28.02.2014	
6	Andijon Bank kollejida ta'lim texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish yo'llari	26.03.2014	
7	Andijon Bank kollejida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalardan foydalanish istiqbollari	08.04.2014	

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: M. To'xtaboyev _____

Topshiriqni bajarishga oldim: M. Xakimova _____

Topshiriq berilgan sana _____ 2014yil

M U N D A R I J A

KIRISH	5-8 betlar
I.BOB. Ta'lim jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning nazariy – uslubiy asoslari.....	9-34betlar
1.1. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish tarixi va nazariy asoslari.....	9-18betlar
1.2. Muammoli ta'lim texnologiyasi haqida tushuncha.....	19-25betlar
1.3. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalarning o'rni va ahamiyati	26-34betlar
II.BOB. Andijon Bank kollejida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning holati tahlili.....	35-53betlar
2.1 Andijon Bank Kollejning pedagogik faoliyati tavsifi.....	35-42betlar
2.2. Andijon Bank Kollejida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish holati tahlili	43-53betlar
III.BOB. Andijon Bank kollejida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish yo'llari	54-62betlar
3.1. Andijon Bank kollejida ta'lim texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish yo'llari	54-57betlar
3.2. Andijon Bank kollejida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	58-62betlar
IV.Xulosa va takliflar	63-66betlar
V. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati	67-71betlar
Ilovalar.....	72-80betlar

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy, ijtimoiy soha va ta'lim tarbiyani rivojlantirish, aholi turmush darajasini yaxshilash mamlakatimiz hukumati oldida turgan vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlanganidek, ...ta'lim-tarbiya sohasining yaxlit, uzluksiz tizimini shakllantirish va mustahkamlash borasida, ta'lim standartlari va dasturlarini takomillashtirish, maktablar, litsey va kollejlar, oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash masalalariga katta e'tibor berildi.¹

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbiq qilish ustuvor vazifa sifatida e'tirof etilgan.

Pedagogik texnologiyalarni vujudga kelishi, bu jamiyat rivojlanishi va talablar o'zgarishining natijasidir. Har bir yangi davr o'z o'zgarishlarini va yangiliklarini taqozo etadi. Pedagogik texnologiyalarning maqsadi har yangi bosqichda asosan ta'lim va tarbiya samarasini oshirishga qaratilgandir. Ta'lim-tarbiya jarayoni samarasini oshirish yangi sifat darajasiga o'tish imkonini beradi. Bu maqsadga erishish uchun esa pedagogik texnologiyalarni, ya'ni o'qish jarayonining borishi va tashkil qilishni yangi samarali ko'rinishlarini ishlab chiqish lozim. Ushbu texnologiyalar hozirgi davr uchun, ya'ni insonning rivojlanish darajasi va texnikaning rivojlanish darajasiga mos tushishi hamda inson va texnik resurslarni uyg'un birlashishini ta'minlashi kerak. Mana shu maqsad va vazifalardan kelib chiqqan xolda bugungi kunda pedagogik texnologiyalarning bevosita shaxsga qaratilgan tizimi shakllantirish va ularning orasida ta'lim jarayonida ijobiy samara berayotgan ta'lim texnologiyalaridan biri

¹ I.A. Karimov "2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi, "Xalq so'zi" gazetasi, 2014 yil 18 yanvar, 13-son

bo'lgan muammoli ta'lim texnologiyasidan ta'lim jarayonida yanada kengroq foydalanish mavzuni dolzarbligi bo'lib hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tadbiq etish bugungi kunda dolzarb hisoblanganligi uchun mazkur muammo yuzasidan respublikamiz va xorijlik pedagoglar tomonidan tadqiq etib kelinmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayoniga muammoli ta'lim texnologiyalarni olib kirish muammolari xususida bir qator professor- o'qituvchilar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Jumladan, professorlar B.Xodiyev, A.Bekmuradov, L.V. Golish, N. Azizxo'jaeva, I.Inomov, S.A. Madyarova, J.Hasanboyev, E.U. Eshchanovlar, xorijiy mamlakat olimlari M.A Matoshkin, T. V. Kudryashev, B.Saymon, L.Zyazyun, I.Ya. Lerner va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.
“Iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi Andijon mashinasozlik instituti “Mashinasozlik texnologiyasi” kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasida tasdiqlangan.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot maqsadi – Andijon bank kollejida ta'lim jarayonida muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish yo'llarini o'rganishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot vazifalari:

- Pedagogik texnologiyalarning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish;
- Muammoli ta'lim texnologiyasini yoritib berish;
- Iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasining o'rni va ahamiyatini ko'rsatib berish;
- Andijon Bank kolleji tashkiliy-pedagogik faoliyati tasnifiga baho berish;
- Kollejda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish holati tahlilini yoritish;

- Kollejda muammoli ta'lim texnologiyalarini takomillashtirishda interfaol usullardan foydalanish va kollejda zamonaviy axborot vositalari asosida ta'lim texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishi obyekt. Tadqiqotning obyekt sifatida Andijon Bank kollejining ta'lim jarayoni olindi. Uning predmetini muammoli texnologiyalarning majmuaviy interfaol tizimi tashkil qiladi.

Tadqiqot metodlar. Pedagogik kuzatuv va pedagogik tajriba-sinov kabilar olindi.

Ishning axborot bazasi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Prezidenti farmonlari, qarorlari va asarlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, darslik va o'quv qo'llanmalar, shuningdek, Andijon Bank kollejidan olingan ma'lumotlardan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

- muammoli ta'lim texnologiyalarning mohiyati va ularni qo'llash zaruratini o'rganilganligi;
- muammoli o'qitish texnologiyalarining o'ziga xos jihatlarini ajratilganligi;
- o'quv jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini izlanish orqali topilganligi;
- Andijon Bank kollejining tashkiliy-pedagogik faoliyati tasnifiga baho berilganligi;
- kollej ta'limida muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llash holati tahlilini yoritilganligi;
- kollejda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishda interfaol usullardan foydalanish va kollejda mavjud axborot texnologiyalari asosida o'qitish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilganligidan iborat.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati shundaki, unda qo'lga kiritilgan ilmiy tahlillar va nazariy

xulosalar Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining iqtisodiyot yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejasiga kiritilgan barcha iqtisodiy fanlarni, jumladan, "Iqtisodiyot nazariyasi", "Mikroiqtisodiyot" kabi fanlarni ilmiy asoslangan ma'lumotlar bilan boyitadi. Qo'lga kiritilgan amaliy tajribalar kollej va akademik litsey o'quvchilarida iqtisodiy hulqni shakllantirishga bo'lgan chora tadbirlarni belgilash, amaliyotga tadbqiq etish imkonini beradi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Ushbu tadqiqot ishi kirish, uchta bob, 7 ta paragraf, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning umumiy hajmi 80 betdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobi Ta'lim jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning nazariy-uslubiy asoslari deb nomlanib, pedagogik texnologiyalarning mohiyati va ularni qo'llash zarurati, muammoli ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihatlari, o'quv jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari haqida nazariy fikrlar yuritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi Andijon Bank kollejida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning holati tahliliga bag'ishlanadi. Unda kollejining tashkiliy-pedagogik faoliyati tasnifi, kollej ta'limida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish holati tahlili keng yoritilgan.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobi Andijon Bank kollejida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish yo'llari deb nomlanagan bo'lib, kollejda muammoli ta'lim texnologiyalarida interfaol usullardan foydalanish istiqbollari xamda ta'lim texnologiyalarini zamonaviy axborot vositalar asosida o'qitishni takomillashtirish masalalari berilgan.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari bo'yicha ilmiy asoslangan umumiy xulosalar chiqarilgan hamda ularning mazmuni keltirilgan.

I-bob. Ta'lim jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning nazariy – uslubiy asoslari

1.1. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish tarixi va nazariy asoslari

Insoniyat tarixida yashash uchun kurash, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot hayotning kelgusi qirralarni belgilab olishga urinishlar doimo bo'lib turgan. Bu holatlar ijtimoiy-gumanitar bilimlar doirasiga yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etgan. Shu bois pedagogik texnologiyasi (PT)ning ham o'z o'tmishi va kelajagi bo'lishi tabiiy holdir.

«Pedagogik texnologiya» tushunchasining vujudga kelishi, ta'limning ilk tashkiliy va metodik shakllarining vujudga kelishi bilan bog'liq. Individual ta'lim o'quv-tarbiya jarayonining eng qadimiy tashkiliy shakli bo'lib, u avval antik Gretsiyada paydo bo'lgan. O'qituvchi bir o'quvchi bilan ishlab, ta'limni bevosita tashkil etgan, boshqargan, nazorat etgan. O'qituvchi matnlarni o'qib bergan yoki bolalarning o'zlariga o'qitib so'zlashgan. Qoida va ta'riflarni yodlash, jismoniy mashqlarni bajarish musiqa asboblari bilan u yoki bu kuyni ijro etish yo'llari bilan bolalar hayot, san'at, notiqlik, jismoniy madaniyatga doir bilimlarni o'zlashtirgan. Keyinchalik individual ta'lim o'rnini guruhlar asosida o'qitish egallagan. O'rta asrlarga kelib qoidalarni yodlash, bir xil tipdagi mashqlarni bajarish, og'zaki savol-javob, yuqori pog'onalarda esa ma'ruza, munozara ta'limning yetakchi usullariga aylana boshlagan. Bu holat asta-sekin sinf-dars sistemasini keltirib chiqarib yangi texnologiyani kelib chiqishiga zamin hozirlagan.

XX asrning 30-yillarda fanga pedagogik texnika tushunchasi kirib keldi. Bu tushunchaning kirib kelishiga 1932 yil 25 avgustda qabul qilingan «Boshlang'ich va o'rta maktablarning o'quv dasturlari va ish tartibi haqida»gi o'sha davr hukumatining qarori sabab bo'ldi.

XX asrning 1940-1945 yillarida “Ta'lim texnologiyasi” tarzida qo'llanilib, mazmunan o'quv jarayonida audio-vizual vositalaridan foydalanishni anglatgan. Atama dastlab AQSHda qo'llanila boshladi. Keyinchalik “ta'lim texnologiyasi” o'rniga “dasturlashtirilgan ta'lim” atamasidan foydalanish keng yoyildi. So'ngra

pedagogik texnologiya-loyihalashtirilgan ta'lim va aniq maqsadga qaratilgan o'quv jarayonini ifoda eta boshladi. O'tgan asrning 80-yillarida pedagogik texnologiya kompyuterli va axborot texnologiyalari bilan sinonim tarzda ishlatila boshladi.

Keyingi o'n yillar ichida yaratilgan, pedagogikaga bag'ishlangan adabiyotlarda «Pedagogik texnologiya», «Progressiv pedagogik texnologiya», «Yangi axborotlar texnologiyasi» kabi tushunchalar uchrab turadi. Ammo, ularga hozirgi kungacha to'liq ta'rif berilmagan. Respublikamizning pedagog olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O'zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo'llashga intilmoqdalar. Bularning barchasi ta'lim-tarbiya sohasida islohotlar o'tkazishni asosiy masala qilib qo'ydi. Bu masalalarni yechishda «Ta'lim haqida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» har taraflama javob beradi.

Prezidentimiz I.A.Karimov Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'la ro'yobga chiqsa ijobiy ravishda portlash effekti sodir bo'lishini bashorat qilib «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javobda shunday deydi: «Ishonchim komil agar bu islohotni amalga oshirsak tez orada hayotimizda ijobiy ma'nodagi portlash effektiga, ya'ni uning samaradorligiga erishamiz»².

Nazarda tutilgan vazifalar to'liq amalga oshsa:

1) ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatdagi mavjud muhit butunlay o'zgaradi;

2) insonning hayotdan o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi;

3) jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxs shakllanadi;

4) ta'limning yangi modeli jamiyatimizning potentsial kuchlarini ro'yobga chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi;

5) oldimizda turgan har qanday vazifani bajarishda maqsadlarga erishishda jamiyatimizning har bir a'zosi qo'shadigan hissa «portlash effektiga» olib keladi.

Bu jarayonda yangi pedagogik texnologiyalarning bir qancha muammolari o'z yechimini topadi. Ular ta'lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot

² A. Karimov Barkamol avlod orzusi Toshkent 1998 y 41-bet

bazalari yanada mustahkamlanadi, o`quv-tarbiya jarayoni yangi o`quv-uslubiy majburiyatlar, ilg`or pedagogik texnologiyalar bilan to`liq ta`minlanadi. Kasb-hunar ta`limi muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishi va o`zini-o`zi boshqarish shakllari mustahkamlanadi. Ta`lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta`lim tizimi jahon axborot tarmog`iga ulanadigan kompyuter axborot tarmog`i bilan to`liq qamrab olinadi.

Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov ta`lim-tarbiya sohasiga milliy didaktik nuqtai nazardan yondashib, uni quyidagicha ta`riflaydi: «Ta`lim O`zbekiston halqi ma`naviyatiga yaratuvchanlik faoliyatini bahsh etadi. O`sib kelayotgan avlodning barcha yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo`ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodlarning doimo tajribasi anglab olinadi va yosh avlodga o`tadi»³.

«Pedagogik texnologiya» tushunchasi juda keng ma`noni qamrab oladi, unga berilgan ta`riflar ham ranbarang. «Texnologiya» tushunchasi fanga 1872 yilda kirib keldi. U yunoncha-«texnos»-hunar, san`at va «logos»-fan so`zlaridan tashkil topib, «hunar fani» ma`nosini anglatadi. Bu ma`noni ta`lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etib:

Texnologiya- bu bir ishda, mahorat va san`at qo`llaniladigan usullar yig`indisidan iborat.

Pedagogik texnologiya-ta`lim shakli, usuli, uslublari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig`ilishini aniqlovchi psixologik-pedagogik ko`rsatmalarning majmuidir.

Pedagogik texnologiya-bu o`quv jarayonini amalga oshirilishining sermazmun texnikasidir. (G. Bespalko)

Pedagogik texnologiya-o`qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishish jarayonining tavsiflaridir.

Texnologiya- bu san`at, mahorat va qobiliyat, ishlov uslublarning majmuidir. (Shepel')

Ta`lim texnologiyasi-bu didaktik tizimning asosiy protsessual qismidir. (Usmonov)

³ Islom Karimov O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li. T., «O`zbekiston » 1992 yil 78-bet.

Pedagogik texnologiya-bu o`quv jarayonining loyihalashtirilishi, tashkil etilishi, o`tkazilish bo`yicha barcha tavsilotlari bilan o`ylab chiqilgan jamoa pedagogik faoliyatining modeli hisoblanadi. U o`quvchi va o`qituvchilarga qulay sharoitlar yaratishi shart. (Monaxov)

Pedagogik texnologiya-bu ta`lim shakllarini optimizatsiyasini o`ziga maqsad qilib olgan inson va texnik resurslari va ularning o`zaro ta`sirini hisobga olgan holda o`qitish jarayonini tashkil etish, qo`llash va aniqlashning hamda bilimlarni o`zlashtirishning uslublaridir. (YUNESKO)

Pedagogik texnologiya-pedagogik maqsadlarga erishish uchun qo`llaniladigan shaxsiy, intellektual, uslubiy vositalarning amal qilish tartibidir. (Klarin).

Pedagogik texnologiya tushunchasi 3 aspektda namoyon bo`ladi:

1. Ilmiy aspekt-pedagogik texnologiya pedagogika fanining bir qismi sifatida ta`lim uslublari, tarkibi va maqsadlarini ishlab chiqadi va o`rganadi hamda shu bilan birga pedagogik jarayonlarini loyihalashtiradi.

2. Protsessual-tavsifiy aspekt-ta`limda rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun jarayonni tasvirlash, maqsad, tarkib, uslub va vositalar majmuidir.

3. Protsessual-amaliy aspekt-pedagogik (texnologik) jarayonning amalga oshishi, barcha pedagogik, metodologik (uslubiy), instrumental vositalarga amal qilish.

Pedagogik texnologiya: ta`lim texnologiyasi, yangi pedagogik tajriba, yangi pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi, yangi tajriba, novator o`qituvchilar tajribasi, ta`lim metodlari, tarbiya metodlari kabi tushunchalarni qamrab oladi. Pedagogik texnologiya ta`lim jarayonida oldinga qo`yilgan maqsadga erishishning yo`li, instrumentari bo`lib hisoblanadi.

Demak, pedagogik texnologiya didaktik vazifalarni samarali amalga oshirish, shu sohadagi maqsadga erishish yo`li. Hozirgi kunda pedagogik texnologiyaning quyidagi turlari mavjud.

I. Qo'llanilishiga ko'ra texnologiyalarni 3 sinfga ajratish mumkin:

- a) umumiy pedagogik texnologiyalar;
- b) xususiy pedagogik texnologiyalar;
- v) kichik pedagogik texnologiyalar, modellar;

II. Falsafiy jihatdan texnologiyalar:

- a) materialistik;
- b) idealistik;
- v) ilmiy;
- g) diniy;
- d) gumanistik;
- e) majburiy.

III. Psixik rivojlanish omili bo'yicha:

a) biogen, ya'ni insonning jipslangan rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi texnologiya; bu texnologiya asosan jismoniy tarbiya kabi fanlarda qo'llaniladi.

b) sotsiogen, ya'ni shaxsning sotsiologik ongini rivojlantirishga qaratilgan texnologiya, bular qatorida jamiyatshunoslik, huquqshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik kabi fanlarni sanab o'tish mumkin.

v) psixogen, ya'ni insoning psixologik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi texnologiya; bular jumlasiga psixologiya, etika, estetika, ma'naviyat, ruhiyat, dinshunoslik kabi fanlarni kiritishimiz mumkin.

IV. Ilmiy tajribani o'rganish bo'yicha:

a) refleksiv, ya'ni ayrim tajribalarning shartli refleks tarzida yoki odatiy holda bir avloddan ikkinchisiga o'tishi;

b) rivojlantiruvchi, ya'ni oldingilar tajribalarini umumlashtirib, o'z tajribalaridan kelib chiqqan holda mavjud texnologiya bilan uyg'unlashtirish;

v) geshtal't, ya'ni ushbu texnologiya o'quvchining his tuyg'ularini qamrab oladi;

g) bixevioristik, bu texnologiya talabalarning tashqi hatti-harakatlariga asoslangan bo'ladi.

V. SHaxs xususiyatlarini rivojlanishiga qarab:

a) axborot texnologiyalar (bilim, malaka, ko'nikmani shakllantirishga qaratilgan texnologiya);

b) operatsion texnologiya (fikrlash malakasini shakllantirishga qaratilgan texnologiya);

v) estetik-ahloqiy texnologiya.

g) boshqaruvchilik xususiyatini shakllantiruvchi texnologiya;

d) evristik texnologiya (ijodiy yondashuvni shakllantiruvchi texnologiya);

e) amaliy hatti-harakatlarni shakllantiruvchi texnologiya.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining hamma sohalarini qamrab oluvchi yaxlit tizim bo'lsa, o'qitish texnologiyasi ma'lum fanlarni hozirgi didaktik talablar asosida o'qitishning yaxlit tizimini tashkil qiladi. Ularning o'zaro bog'liqligi «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ishlab chiqilgan Davlat ta'lim standartlarida o'z ifodasini topgan.

1.Yangi pedagogik texnologiyaning metodik asoslari Davlat ta'lim standartlari bo'lib hisoblanadi. Davlat ta'lim standartlarida talaba egallash lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar mezoni belgilab berilgan. Undan past bo'lmasligi kerak.

2.Pedagogik texnologiya va o'qitish texnologiyalarining maqsadi bitta: ijodiy tafakkur sohibini etishtirishdan iborat. Bu maqsad Davlat ta'lim standartlarining bosh talabidir. Ta'lim jarayonidagi har bir texnologiya, berilgan topshiriqlar o'quvchini ijodiy fikrlashga va ijodiy rivojlanishga olib kelsin. Shunday vaziyat yaratish kerakki, o'quvchi-talaba o'z xohishi bilan izlansin,, tafakkurini rivojlantirsin, intilsin, unda fanni egallashga qiziqish uyg'onsin.


3.Har bir mashg'ulotda beriladigan topshiriqlar berilgan vaqtning 20-25%ni, o'quvchining ijodiy tafakkur asosida ish olib borishi 70-80% vaqt oralig'ida bo'lsin. O'quvchi ko'proq amaliy bilimlarni egallasin va undan nazariy xulosalar chiqara olsin.

4.O`qitish texnologiyasida bilim berish, bilim olish usulini tanlash va o`rganishga katta ahamiyat berish, bilim olish, bahs asosida amalga oshishini ta`minlash.

5. O`qitish usuli-texnologiyasi-yangi pedagogik texnologiyalarning asosi bo`lib hisoblanadi.

6.Ta`lim jarayonida darslarni, seminar, o`yin, disput, KVN va har xil teatrlashgan vaziyatlar asosida tashkil etish yoki ta`limda differentsiyalashni amalga oshirish lozim.

7.Ta`lim jarayoni tayanch bilimlarini amaliyotga tadbiq etib, rivojlantirib borish, tizimli asosda bo`lishi yangi pedagogik texnologiya va o`qitish texnologiyalarining uzviyligini ta`minlovchi – lokal (bitta yo`nalish) holatning samara berishiga olib keladi.



1.1.1-chizma. Pedagogik texnologiya tuzilishi.

Texnologik jadval- texnologik jarayonning shartli tasviri, uning alohida funksional elementlariga bo`linishi va ular o`rtasidagi mantiqiy aloqalarning belgilanishi.

Texnologik xarita- jarayonni bosqichma-bosqich usulda ifodalash, bunda maqbul bo`lgan vositalar ko`rsatiladi (bu odatda grafik shaklda ifodalanadi).

Texnologik nyuanslar- adabiyotda odatda pedagogik tizim tushunchasi pedagogik texnologiya sifatida ko`rsatiladi. Lekin pedagogik texnologiya kengroq

ma'nodagi tushuncha bo'lib, o'ziga xos pedagogik faoliyatning ob'ekt va subyektlarini oladi.

Hozirgi ilmiy-texnik taraqqiyot asrida ta'limni texnologiyalashtirish oldiga bir qancha vazifalar qo'yadi. Har bir dars ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadni amalga oshiradi. O'quv jarayonida esa: motivatsiya, bilish faoliyati, boshqarish faoliyati kabi maqsadlarni amalga oshiradi.

1.Motivatsiya – o'quvchilar diqqatini tortish, ichki tuyg'u istak, zaruratni shakllantirish, o'quv jarayonida asosiy harakatlantiruvchi kuch-o'quvchi va o'qituvchi uchun ham ichki motivatsiya bo'lishi kerak.


2.Bilish faoliyatiga e'tiborda asosan quyidagilarga e'tibor berish kerak: o'quvchilardagi tashabbuskorlik, mustaqillik, bilimlarni puxta o'zlashtirish, zarur malaka ko'nikmalar hosil qilish, tafakkur rivojiga e'tibor berish.

3.Boshqarish faoliyatini vazifalari shundan iboratki, o'qituvchi berilayotgan bilim, ko'nikma, malakalar tizimini qay darajada egallab bormoqda. Darsda qo'llanilayotgan texnologiyalarga, pedagogik texnologiya monitoringi (pirovard natijada) orqali baholanadi.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga kafolatli erishishda o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. U asosan o'z ichiga quyidagilarni oladi.

- ta'limda umumiy maqsadning qo'yilishi;
- tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o'tish;
- o'quvchilarning bilim darajalarini dastlabki baholash;
- bajariladigan o'quv ishlarni majmuasi;
- natijani baholash.

Bundan ko'rinadiki, o'quv jarayoni «modulli» ko'rinishga kelib, turli mazmun bilan to'ldirilgan, umumiy tizimga mos holda ishlab chiqariladigan bloklar qismlardan iborat.



1.1.2-chizma. O'qitish texnologiyasining tuzilishi

O'quv jarayoni pedagogik texnologiya asosida tashkil etishning rejalashtirishda pedagogdan yuksak malaka talab etadi, materiallar tayyor bo'lgach, pedagog asosan tashkiliy va konsul'tativ vazifalarni bajaradi. Umumiy ko'rinishda pedagogik texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

- fanning identifikatsiyalashgan o'quv maqsadlarini ishlab chiqish;
- o'quv maqsadli shajarasi;
- o'quv maqsadlarini nazorat topshiriqlariga aylantirish;
- maqsadga erishish usullari;
- erishilgan o'quv maqsadlarini baholash.

Bu tarkibiy qismlarning har biri ma'lum yo'nalishdagi pedagogik operatsiyalar tizimini tashkil etadi.

Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, o'quvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'la qamrab olishi kerak.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'lim tarkibi yangi protsessual mahoratlar, axborotlar bilan ishlash qobiliyatining rivojlanishi, ilmiy muammo va bozor amaliyotining ijodiy yechimining ta'lim dasturlarini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda.

Bugungi kunda texnologik savodli mutaxassis bo'lish uchun ta'lim texnologiyalarning hammasini o'rganish lozim. Pedagogik texnologiyani qaysi tomondan tahlil qilmaylik, uning asosi ta'lim samaradorligini oshirishga, ya'ni kam vaqt sarflab, ko'proq sifatli natijaga erishishga qaratilgan. Yuqorida keltirilgan ta'riflar pedagogik texnologiya usulining mazmunini anglash va aniqlash jarayoni hali poyoniga yetmaganligidan dalolat beradi. Bu masalaga oydinlik kiritish uchun, avvalo, pedagogik texnologiya usulining muhim belgilarini aniqlash talab etiladi. Pedagogik adabiyotlarni o'rganish va tahlil etish, pedagogik texnologiyaning muhim xususiyatlari, belgilari qatorida quyidagilarni ko'rsatishga imkon beradi:

- tizimli yondashuv asosida talabaning o'qish-bilish faoliyatini tasvirlaydigan ta'lim jarayoni loyihasini tuzish;
- ta'lim maqsadi real, aniq diagnostik bo'lishi va o'quvchining bilim o'zlashtirish sifatini ob'yektiv baholash;
- ta'lim shakllarini optimallashtirish (qulaylashtirish);
- ta'lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining o'zaro ta'sirini hisobga olish;
- bilim o'zlashtirish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab, tuzatib borish;
- belgilangan mezonlarga binoan test vazifalarini bajarish;
- ta'limning rejalashtirilgan natijaga erishishning kafolatlanganligi;
- ta'lim samaradorligining yuqoriligi.

Xullas, pedagogik texnologiya- o'qitish jarayonlarini optimal tashkil etishdir. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab o'quvchilarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab shakl va hajmini o'zgartirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor hisoblanadi. Pedagogik texnologiya o'z navbatida ta'lim-tarbiyaning obyektiv qonuniyatlari va pedagogik maqsadlari asosida o'quv jarayonlari, ta'lim tarbiyaning mazmuni metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir.

1.2. Muammoli ta'lim texnologiyasi haqida tushuncha.

Respublikamizning hozirgi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tamoyillari jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin olish uchun ma'naviy salohiyatimizni va iqtisodiy qudratimizni yanada oshirish, ularni XXI asr ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga javob beradigan tarzda qayta qurishni talab qiladi. Buning uchun yoshlarimiz dunyoqarashini o'zgartirish, ularning bilim va ma'naviyatlarini jahon andozalari darajasiga ko'tarish zarur.

Bugun jamiyat oldiga: maxsus qobiliyatini ularning mustaqil bilishlarini maqsadga muvofiq ravishda rivojlantirishni vazifa qilib qo'ydi.

Ana shu vazifalarni hal etishda muammoli ta'lim texnologiyasi yetakchi o'rinni egallaydi.

Muammoli ta'lim – bu mantiqiy fikrlash operatsiyasi (tahlil, umumlashtirish) va o'quvchilarning izlanishli faoliyati qonuniyatlarini (muammoli vaziyat, bilishga qiziqish, ehtiyoj) hisobga olib tuzilgan ta'lim va o'qitishning ilgari ma'lum bo'lgan usullarini qo'llash qoidalarining yangi tizimidir. Shuning uchun ham muammoli ta'lim ko'proq o'quvchi fikrlash qobiliyatining rivojlanishini, uning umumiy rivojlanish va e'tiqodining shakllanishini ta'minlaydi. Didaktikaning barcha yutuqlarini istisno qilmay, balki ulardan foydalangan holda muammoli ta'lim ilmiy bilim va tushunchalarni, dunyoqarashni shakllantirish, shaxs va uning pedagogik faolligini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida rivojlantiruvchi ta'lim bo'lib qoladi.

Pedagogik manbalarda ta'kidlashicha muammoli ta'limga XX asrning 20-30 yillarida asos solindi. Dastlab Amerikalik filosof, psixolog va pedagoglar ta'limning ijtimoiy, konstruktiv, ilmiy-tadqiqiy xususiyati va asoslaridan kelib chiqib, muammoli ta'lim to'g'risida fikr yuritdilar. Keyinchalik 50-yillarda Polshada (Vintsenti Okon), 60-yillarda M.I.Maxmutov, I.Ya. Lernerlar 70-80 yillarida M.A Matoshkin, T.V. Kudryashvlar muammoli ta'limning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqdilar.

An'anaviy didaktika butun e'tiborni o'qituvchi faoliyatiga qaratgan edi ta'lim jarayoni deganda asosan o'qitish jarayonini ko'zda tutgan edi. O'qitish jarayoni yetarli o'rganilmas edi, ko'pincha o'quvchilarning reproduktiv faoliyati bayon qilinardi, xolos. Hozirgi zamon didaktikasi o'quvchilarning mustaqil – o'quv – bilish faoliyatiga e'tiborni kuchaytirdi.

Muammoli ta'lim nazariyasi o'quvchi pedagogik kuchining rivojlantiruvchi ta'limni tashkil qilishning psixologik – pedagogik yo'llari va usullarini tushuntiradi.

Ma'lumki, shaxsning har tomonlama va garmonik rivojlanishining muhim ko'rsatkichi – yuqori darajada fikr yuritish qobiliyatining mavjudligidir. Agar ta'lim ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga olib borsa, u holda uni so'zning zamonaviy ma'nosida rivojlanuvchi ta'lim deb hisoblash mumkin.

Rivojlanuvchi ta'lim deb, ya'ni umumiy va maxsus rivojlanishga olib keladigan shunday ta'limni hisoblash mumkinki, unda o'qituvchi fikr yuritishning qonuniy rivojlanishni bilimga tayangan holda, maxsus pedagogik vositalar yordamida o'z o'quvchilarini fan asoslarini o'rganish jarayonida fikrlash qobiliyati va bilish ehtiyojini shakllantirishga oid maqsadga yo'naltirilgan ish olib boradi. Bunda ta'lim, fikrimizcha, muammoli ta'lim bo'lib hisoblanadi. Muammoli ta'lim yo'li bilan faollashtirishning maqsadi favqulotda, betartib ravishda vujudga keladigan fikrlash operatsiyalariga o'rgatish emas, balki (o'quvchilarni tushunchalarning o'zlashtirish darajasini oshirish) nostereotip masalalarni hal qilish uchun aqliy harakat tizimiga o'rgatishdir. Bu faollik shundan iboratki, bunda o'quvchi faktik materiallarini tahlil qilib, qiyoslab, sintez qilib, umumlashtirib, konkretlashtirib, undan o'ziga yangi axborot oladi.

Boshqacha qilib aytganda, bu ilgari o'zlashtirilgan hamda avvalgi bilimni yangicha qo'llash yordamida bilimni kengaytirish chuqurlashtirish demakdir. Avvalgi bilimlarni yangicha qo'llashni kitob ham, o'qituvchi ham o'rgata olmaydi. Bu mavjud tegishli vaziyatda o'quvchi tomonidan izlanishi va topilishi lozim.

O'qitish jarayoniga muammoli o'qitish texnologiyasini qo'llash uchun o'qituvchi quyidagi masalalarni hal qilish:

1. O'quv dasturi bo'yicha mavzularni muammoli dars shaklida o'tish mumkinligini;

2. Mavzu matnidagi masalalar bo'yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, tizimlilik, mantiqiy ketma-ketlik, izchillik prinsiplariga amal qilish;

O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta'minlaydigan vosita va usullarini aniqlashi, ulardan o'z o'rnida va samarali foydalanish yo'llarini belgilash zarur.

Muammoli ta'lim – bu o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning asosiy usuli bo'lib, insonning bilish va amaliy faoliyatini boshqaruvchi muayyan shaxsiy subyektiv yo'llanma sifatida tushuniladi.

Dunyoqarashni shakllantirish – bu birinchi navbatda shaxsning intellektual – faolligini shakllantirishdir. Ilmiy dunyoqarashni samarali shakllantirishning ikkita muhim sharti mavjud:

1) o'quvchilarning tushunchalar tizimini o'zlashtirishga oid faol intellektual fikrlash faoliyati.

2) Insonning his-tuyg'usi va emotsiyasiga ta'sir etish, uning bilimini e'tiqodga aylantirish.

O'qituvchi bilan o'quvchining o'zaro munosabati xarakteriga ko'ra muammoli ta'limni shartli ravishda 4 darajaga ajratish mumkin:

1.2.1-jadval

Muammoli ta'lim darajalari

Muammoli ta'lim darajalari	O'qituvchi va o'quvchi faoliyati
Mustaqil bo'lmagan (odatdagi) faollik darajasi	O'qituvchi tushuntirganini o'quvchi tomonidan idrok etilishi muammoli vaziyatlar sharoitida aqliy mehnat
Yarim mustaqil faollik darajasi	Ilgarigi bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llash va o'quvchilarning o'qituvchi tomonidan qo'yilgan

	o'quv muammolarining yechish usullarini izlashda ishtirok etish
Mustaqil faollik darajasi	Reproduktiv – izlanish tipidagi ishlarni bajarish, bunda darslik matni bilan o'quvchining o'zi ishlaydi, ilgari bilimlarini yangi vaziyatda qo'llanadi, konstruksiyalaydi, o'rtacha murakkablikdagi masalalarni yechadi, o'qituvchining ko'magi bilan gipotezalarni isbotlaydi va h.k.
Ijodiy faollik darajasi	Ijodiy tasavvurni talab etuvchi, mantiqiy tahlil qilish va o'ylab topishni, o'quv muammolarini yechishning yangi usullarini kashf etishni, mustaqil isbotlashni: mustaqil xulosa va umumlashmalar chiqarishni, kashfiyot va badiiy insholar yozishni talab qiladigan mustaqil ishlarni bajarish

Muammoli ta'limni tadqiqot metodi bilan aynan bir narsa deb emas, balki o'quvchi tafakkuri va uning xotirasining rivojlanishini tahminlaydigan, bilimlarni ijodiy o'zlashtirishiga, ilmiy faktlarni jamlashga ko'maklashadigan hamda e'tiqodni tarkib toptiradigan ta'limning bir turi deb qarash lozim.

Muammoli ta'lim – o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarga faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. Shuningdek muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi-talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarni, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli vaziyatlarning roli va ahamiyatini aniqlash o'quvchi faol fikrlash faoliyatining psixologik-pedagogik qonuniyatlarini izchil ravishda hisobga olish asosida o'quv jarayonini qayta qurish g'oyasiga olib keldi. Yangi pedagogik faktlarni nazariy jihatdan mulohaza qilib ko'rish asosida muammoli ta'limning asosiy g'oyasi aniqlanadi: muammoli ta'limda bilimning deyarli katta qismi

o'quvchilarga tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchilarning tomonidan muammoli vaziyat sharoitlarida mustaqil bilish faoliyati jarayonida egallab olinadi.

Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

1. O'quv materialini muammolashtirish;
2. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish;
3. Ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish;
4. O'qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o'z o'rnida va samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish;
5. Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o'quvchilarga bayon etish.

Muammoli ta'lim bu-o'quvchiga beriladigan bilimning qaysi qismini, qanday yo'l bilan berish muammosini samarali hal qilishga qaratilgan o'qituvchi faoliyatidir. Muammoli ta'lim darsda bir vaqtning o'zida o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi harakati bo'lib, u o'quvchi shaxsidagi muhim belgi-ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. N.G.Dayri aytganidek, darsda o'rganiladigan mazmunning murakkab qismini o'zlashtirishda o'qituvchining faoliyati qanday bo'lsa, o'quvchi faoliyatini ham shu darajaga yetkazish muammoli ta'limning asosiy maqsadidir. Muammoli ta'lim- o'quvchilarning erkin fikrlashlariga, o'zining fikrini erkin bayon qila olishlariga va fikrlarini yanada rivojlantirishlariga ta'sir etishdir. Bunda o'quvchi diqqat bilan tinglashi, mustaqil va yolg'iz fikrlashi, jamoa bo'lib fikrlashi, tahlil qilishi, ko'pchilik bo'lib muhokama qilishi va to'plangan fikrni bayon qila olishi kerak.

Agar o'qituvchi yangi mavzuni ta'sirli bayon qilib, ko'rgazmalardan unumli foydalansa, bayon nihoyasida ayrim o'quvchilar bilan ish olib borsa, o'quv jarayoni samarali bo'ldi yoki faol bo'ldi, deb hisoblash mumkin. Ammo bu ta'lim usuli an'anaviy ta'lim berishdir.

Muammoli ta'lim o'qituvchidan aniq harakat qilishni, darsning har bir minutini hisobga olishni, ushbu vaqtda kerakli samara hosil bo'lishi uchun o'zining barcha imkoniyatlarini va mahoratini ishga solishni talab etadi. Bu masalani hal

etishning muhim sharti o'qituvchining bo'lajak o'quv mashg'ulotiga tayyorgarligidir. Tayyorgarlik jarayonida muammoli ta'limning barcha ko'rinishlarini hisobga olish va uni uslubini ishlab chiqish zarur. Muammoli ta'limga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchilar qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklarni yengishda o'qituvchini innovatsion ijodiy laboratoriyasining ahamiyati katta.

Ana shunday qiyinchiliklardan biri darsni muammoni tashkil qilish va muammoni o'rganish usulini tanlashdadir. Chunki tanlangan usul faqat o'quv materialini o'zlashtirishni ta'minlabgina qolmay, balki o'quvchilar faoliyatida mustaqillikni ham tahminlashi zarur.

Ikkinchi qiyinchilik esa muammoli ta'limni ko'rinishini aniqlashda yuzaga keladi, ya'ni o'qituvchi muammoni yechishga sinfdagi barcha o'quvchilarni jalb qiladimi yoki vazifani ayrim guruh o'quvchilariga bajartiradimi? Bu qiyinchilik o'qituvchida muammoli vaziyat va muammoning bayoni haqidagi tasavvurlarni yetishmasligidan kelib chiqadi.

Uchinchi qiyinchilik esa darsda o'quvchilarni qiziqishini uyg'otish va uni uzluksiz rivojlantirib borishida ko'rinadi. Chunki o'quvchilar diqqatini bir nuqtaga muntazam to'plashga o'qituvchining tajribasi va mahorati yetmasligi mumkin.

Muammoli ta'lim haqidagi to'plangan ma'lumotlarga asoslanib, shuni ta'kidlash lozimki, bu ta'lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 ko'rinishga ega. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish, Muammoning qo'yilishi, Muammoning yechimini topish. Muammoli vaziyatni o'quv mashg'ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko'p shallantirish o'qituvchiga bog'liq. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki u o'quvchilar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va o'quvchilarning izlanishiga, fikrlashga o'rgatadi. Muammoli vaziyatni yaratganda o'qituvchi o'quvchilar o'z diqqatlarini nimalarga qaratishlari kerakligini aytishi maqsadga muvofiqdir.

Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o'quvchilarning muammoni hal etish, murakkab savollarga javob topish jarayonida alohida ob'ekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko'nikmalari va bilimlarni faollashtirishga asoslangan faol bilish faoliyatini taqozo etadi.

Muammoli vaziyatlarni hal etishda o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari: tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga yo'naltiradi. Muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarda: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

Muammoli darslarda o'qituvchining faoliyati, avvalo mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv muammolarini aniqlash, muammoli vaziyatlar tizimini yaratish, o'quvchilar oldiga o'quv muammolarini yuqori ilmiy va metodik saviyada qo'yish, darsda mazkur o'quv muammolaridan samarali foydalanishga erishish, o'quvchilar faoliyatini muammolarni hal etishga yo'naltirishdan iborat bo'ladi.

O'quvchilarning faoliyati muammoli vaziyatlarni idrok etish, hal qilish usullarini izlash, muammoni tahlil qilib, taxminlarni ilgari surish, taxminlarni ilmiy, mantiqiy nuqtai nazardan asoslash, taxminlarni tekshirish va xulosa chiqarishdan iborat bo'ladi.

Zamonaviy muammoli dars tuzilishida uning tipi va turidan qat'iy nazar har xil darajada hal qilinadigan uchta umumlashgan didaktik masala ko'riladi:

- 1) o'quvchilar oldingi bilimlari va harakat usullarini o'zlashtirish.
- 2) yangi bilimlar va harakat usullarini o'zlashtirish.
- 3) ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish.

1.3. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalarning o'rni va ahamiyati.

Zamonaviy ta'lim standartlari fan va texnika tezkor rivojlanayotgan bugungi kun talablariga javob beraoladigan yuksak malakali mutahassislarni tayyorlashni, o'quvchilarning tanlagan ixtisosliklari bo'yicha mustaxkam bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni, mustaqil ravishda amaliy faoliyatga o'rgatishni ta'minlashi kerak.

Shuning uchun xam tadqiqotchilar ilg'or o'qituvchilar talabalarda o'quv faoliyatiga ijodiy yondashishni rivojlantirish yo'llari, texnologiyalari va standartlarini yaratish borasida tadqiqot olib bormoqdalar. Bugungi kunda iqtisodiy fanlarni o'qitishda ta'lim jarayonida ijobiy samara berayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalardan biri muammoli ta'limdir.

“Bugungi kunda, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy faoliyat ko'satishlariga e'tibor kuchaygan, o'qitish jarayonida o'quvchi ta'lim subyektiga aylangan bir davrda muammoli ta'limning ahamiyati kuchaydi”⁴.

“Muammoli ta'lim, ta'lim berishning eng samarali usullaridan biri bo'lib, u asosan ilmiy bilimlar asosida muammoli vaziyatlar mantiqini namoyish etadi. O'quv materialini muammoli vaziyatlar kiritib bayon etish an'anaviy darsning eng optimal ko'rinishlaridan biri ekanligi xozirda ortiqcha isbot talab qilmaydigan unsur sifatida qabul qilinmoqda”⁵.

Xozirgi zamon psixologiyasi va didaktikasi shunga asoslanadiki fikr yuritish jarayonining boshlang'ich momenti, odatda, muammoli vaziyat bo'ladi. Insonda biror narsani tushunishga ehtiyoj paydo bo'lgandagina u fikr yurita boshlaydi.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli vaziyat- muayyan qiyinchilik sabab yuzaga kelgan holat bo'lib, uni bartaraf etish yo'li topilishi kerak. Vazifa yengil xal etiladigan yoki aksincha hal etilishi kerak bo'lmagan paytda muammoli vaziyat yuzaga kelmaydi.

⁴ N.D. Maxmudova. Ta'limda muammoli ta'limning o'rni va roli “Ta'lim texnologiyalari” T., 2012 №4 17-bet

⁵ Z. Botirova. Muammoli o'qitish texnologiyasining mohiyati va mazmuni “Fan izlanishlar va yechimlar”.T., 2010yil 3-son 34-bet

Iqtisodiy fanlarni muammoli o'qitish jarayonida o'qituvchi avvalo muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo'yadi, masalani eksperimental topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokama uyushtiradi. Xulosalarning to'g'riligini tasdiqlaydi, o'qituvchilar oldingi bilim tajribalarga asoslanib muammoli vaziyatni hal etish yo'llari to'g'risida o'ylaydilar va takliflar kiritadilar. Oldingi olgan bilimlarini umumlashtirib, xodisalarning sabablarini aniqlagan holda, ularning kelib chiqishini tushuntiradilar, muammoli vaziyatni yechishning eng oqilona variantini qidiradilar. Bu uslub o'quvchilarning bilim qiziqishini oshiribgina qolmay, ularda fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasining muammoli vositalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- Savollar
- Bilishga doir masalalar
- O'quv topshiriqlari
- Darslik
- Ko'rsatmalilik, ta'limning texnik vositalari
- Laboratoriya ishlari, amaliy mashg'ulotlar.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'limni qo'llashda muammoli vaziyat strategiyasi yaratiladi. «“Muammoli vaziyat” strategiyasi o'quvchi talabalarni o'rganilayot mavzu bo'yicha muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablarini, oqibatlarini o'rganish, yechimlarni topishga undash orqali ularda muayyan ko'nikma malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi»⁶.

Mashg'ulotlar jarayonida “Muammoli vaziyat” strategiyasini qo'llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi.

- Mavzu yuzasidan muammoli vaziyatni shakllantirish
- Muammoli vaziyat mazmuni bilan o'quvchi (talaba)larni tanishtirish
- O'quvchi (talaba)larni kichik guruh (juftlik)larga ajratish

⁶D. Ro'ziyeva va boshqalar Interfaol metodlar mohiyati va qo'llanilishi. Metodik qo'llanma Toshkent 2013yil 44-bet.

- Guruh (juftlik)lar tomonidan muammoli vaziyat yechimini topish bo'yicha amaliy faoliyatning tashkil etilishi;

- Guruh (juftlik)lar tomonidan muammoli vaziyat yuzasidan o'z yechimlarining maqbullik darajasini o'rganish (ommaviy muhokama qilish, ekspertlar muxokamasidan o'tkazish.

- Guruh (juftlik)lar tomonidan taqdim etilgan yechimlarning maqbullik darajasini o'rganish (ommaviy muhokama qilish, ekspertlar muxokamasidan o'tkazish.)

- Eng to'g'ri, maqbul yechimni aniqlash

Muammoli vaziyat yaratilishi va uni qo'yilishi va yechimini topish jihatidan quyidagi darajalari mavjud:

- Muammoli ta'lim nazariyasida ko'pgina tadqiqotchilar muammolikni bir necha darajasini ajratib ko'rsatadilar. Tadqiqotchilik ishi eng yuqori daraja bo'lib, bunda talaba o'zi mustaqil ravishda muammoni ilgari suradi va uni hal etadi. Bu darajaga *tadqiqotchilik usuli* mos keladi va uni amalga oshirish shakli bo'lib – bu muammoli amaliy va nazariy topshiriqlarni yechish hisoblanadi.

- Qisman-izlanuvchilik darajada muammo (muammoli vaziyat) ta'lim beruvchi tomonidan ilgari surilib, uni yechimini mustaqil ravishda topishni esa, ta'lim beruvchi rahbarligi ostida talabaga topshiriladi. Bu muammolikning o'rtacha darajasi bo'lib, u *evristik-dialog usuli* yordamida tashkil qilinishi mumkin hamda uni evristik xususiyatidagi suhbat shaklida amalga oshiriladi.

- Muammolikning eng past darajasi – bu muammoli bayon etish bo'lib, bunda ta'lim beruvchining o'zi talabalar oldiga muammoli vaziyatni yaratib, muammoni ilgari suradi, farazni ham o'zi aytadi va o'zi uni isbotlaydi. Bu darajaga mos keladigan usulni – muammoli bayon etish deb ataladi hamda uni amalga oshirish shakli – muammoli xususiyatidagi ma'ruza hisoblanadi.

Muammoli vaziyatlar natijasida talaba ongida muammo shakllanadi. U vaholanki, savol shaklida amalga oshiriladi va muammo qanchalik chuqur

shakllantirilgan bo'lsa, unga qiziqish ko'proq bo'ladi, demak uni hal etish ham muvaffaqiyatli bo'ladi.

Muammoli vaziyatni o'rganish, mavzuga oid materialni tahlil qilishda o'qituvchining shu vaziyatga o'zi kirishishi, uni tushunishi, baxolay olishi kerak. Ushbu holatda u qanday muammo borligi va qo'yilayotgan muammoning mohiyati nimada ekanligini aniqlashi lozim, muammoni hal etishdagi o'zining roli va bunda o'zini qanday tutishi kerakligini belgilashi kerak. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli vaziyatlar metodi tayyorlov, tanishuv, tahlil va yakuniy qaror qabul qilish bosqichlariga bo'linadi.

Tayyorlov bosqichida o'qituvchi maqsadni belgilab, kerakli vaziyat rejasini ishlab chiqadi, ya'ni:

a) beriladigan misol nazariy kursni mantiqan davom ettirishi va o'quvchilarning kelgusidagi kasbiy ehtiyojlariga muvofiq bo'lishi kerak;

b) qo'yilayotgan muammo murakkabligi o'quvchilarning imkoniyati darajasida bo'lishini xisobga olish kerak, ya'ni o'quvchi bir tomondan vazifani bajara olsin, ikkinchi tomondan uni bajarish ishtiyoqi hamda muvaffaqiyat xissi paydo bo'lsin;

c) o'quvchilarga muammo ustida ishlash bo'yicha yo'l yo'riqlar berilishi kerak.

Tanishuv bosqichida o'quvchilar muammoni real, ya'ni jonli muxokama qilishga jalb etiladi. O'qituvchi o'quvchilarning ma'lum soxadagi bilim, ko'nikma va malakalarini hisobvga olgan holda bajariladigan ishining umumiy izoxini belgilaydi. Individual ravishda yoki butun guruhni qo'yilayotgan muammoning mazmuni bilan tanishtiradi.

Tahlil va yakuniy qaror qabul qilish bosqichida muammoli vaziyatni tahlil etish guruxiy ish bo'lgani uchun muammo ochiq baxs-munozara shaklida hal etiladi.

Muhimi, o'quvchilardagi faollikni rivojlantirish va muammoni hal etish bo'yicha boshqalar kiritgan taklifga xolis baho berishga erishiladi. Bu esa ishlab

chiqarishda yuzaga keladigan vaziyatlarni tahlil etish ko'nikmasining takomillashuviga va mustaqil ravishda qaror qabul qila olish qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Barcha tahlillardan so'ng yakuniy xulosa chiqariladi.

Maqsadga yo'naltirilgan muammoli vaziyatlarni yaratishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- muammoli vaziyat o'quvchilarning ishlab chiqarish faoliyatiga asoslangan bo'lishi kerak.

- Muammoli topshiriq o'quvchi o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasiga mos bo'lishi lozim.

- Muammoli vaziyat yangi mavzuni tushuntirishdan oldin qo'yilishi kerak. Agar mos muammoli vaziyatni hal etishga o'quvchilar malakasi yetrali bo'lmasa, ularga ayrim amallarni bajarishdagi ish usullarini ko'rsatish, zarur bo'lgan bilimlarni eslatish lozim.

- Bilim, ko'nikma va malakalar takomillashuv jarayoni bevosita o'qituvchi-pedagogning rahbarligi ostida muammoli vaziyatlarni hal etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Muammoli vaziyat yaratish bilan birga, xulosa chiqarishga yordam beradigan yo'naltiruvchi savollar berib borishni xam nazarda tutish lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, muammoli vaziyat o'quv ishlab chiqarish jarayonida o'quvchilarda kasbga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirish va rivojlantirishning eng muhim omili bo'ladi.

Muammoli ta'lim texnologiyasining asosiy vazifasi – talabalarning bilimlar tizimini va aqliy faoliyat usullarini samarali o'zlashtirishlariga yordam berish, ularda olgan bilimlarni yangi vaziyatlarda ijodiy qo'llana olish, o'quv muammolarini yechish ko'nikmalarini hosil qilish, mustaqil bilim orttirish qobiliyatlarini singdirishdan iborat.

Muammoli ta'limning asosiy maqsadi- ilmiy bilish, pedagog tomonidan yaratilgan muammoli vaziyatlar va ularni ochishga qaratilgan o'quvchining mustaqil faoliyati, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish orqali o'qitish jarayoni natijalarini maqsadli rejalashtirishdan iboratdir.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'limda qisman izlanma va evristik qidiruv metodlarini qo'llash mumkin. Bunda o'qituvchi o'quvchilar oldiga qator izchil va o'zaro bog'liq bo'lgan savollar majmuini qo'yadi.

O'quvchilar ularga javob berganda qandaydir shakllarni aytadilar. Aytganlari to'g'riligini mustaqil isbotlashga xarakat qiladilar. Shu bilan birga yangi bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil ravishda oldinga siljitishini amalga oshiradilar. Agar evristik suxbatda bunday taxminlar yangi mavzuning faqatgina biror qismiga aloqador bo'lsa, muammoli-qidiruv suxbatda o'quvchilar muammoli vaziyatning butun bir qismini yechadilar. Ta'limning muammoli qidiruv uslublarida ko'rgazmali qo'llanmalar esda saqlashni faollashtirish maqsadida emas, balki darsda muammoli vaziyatni yaratadigan eksperimental masalalarni qo'yish uchun ishlatiladi. Bu usulda o'quvchilarga mustaqil fikrlashning ustuvor sabablarini aniqlash oson kechadi. Muammoli qidiruv uslublari ko'proq ijodiy bilim faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida qo'llaniladi. Ular o'quvchilarning bilimni chuqur anglashiga, mustaqil egallashga yordam beradi.

Muammoli ta'limda o'qituvchi aniq maqsadlarga yo'naltirilgan savollar va topshiriqlar ishlab chiqadi. U muammoli savollarni hal etishda yoki topshiriqlar bajarishda o'quvchilarning aniq maqsadga yo'naltirilgan harakati turtki beradi va jarayonni nazorat qiladi. O'quvchi esa o'z ta'limining faol qatnashchisi bo'lib qoladi. Muammoli ta'limning ahamiyati shundaki, bunda o'quvchilar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va o'quvchilarning izlanishiga va mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Ko'rib o'tganimizdek muammoli ta'lim texnologiyasining o'rnini va ahamiyati ta'lim tarbiya muassasalari oldida turgan muammolarni yechishga amaliy yordam ko'rsatadi, xamda:

1. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi va ijodiy qobiliyatlarni o'stiradi;
2. Ilmiy bilimlarni mustaqil qo'lga kiritish va amalda qo'llash metodlarini o'zlashtirish imkonini yaratadi;

3. Egallagan bilimlar asosida ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllanishiga imkon yaratadi;

4. Bilimlarni ijodiy o'zlashtirish, tahlil qilish, amalda qo'llash ko'nikmalari xosil qilinadi;

5. ijodiy faoliyat tajribasi tarkib topadi.

Bilamizki dars mashg'ulotini olib borish uchun o'qituvchi tomonidan xar bir mavzuga moslashtirilgan ta'lim texnologiyasi modeli va texnologik xarita ishlab chiqiladi. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasining ta'lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasi quyidagicha:

1.3.1-jadval

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasining moduli

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 15-30 ta
O'quv mashg'ulot shakli	Muammoli seminar
O'quv mashg'ulot rejasi	1. 2. 3.
O'quv mashg'ulot maqsadi: ...bo'yicha bilimlarni mustahkamlash, ... to'g'risida muammoli vazifalarni yechish malakalarini rivojlantirish	
Pedagogik vazifalar: ... to'g'risida ma'lumotlarni tizimlashtirishni o'rgatish; - ... bo'yicha muammoli vazifalarni yechishni, tahlil qilishni o'rgatish; - ... imkoniyatlarni ilgari surish, ularni baholash, yakuniy xulosalar qilishni o'rgatish.	O'quv faoliyat natijalari: - ... ma'lumotlarni tizimga soladilar; - ... bo'yicha muammoli vazifalarni yechadilar, tahlil qiladilar; - ... imkoniyatlarni ilgari suradilar, ularni baholaydilar, yakuniy xulosalar qiladilar.

Ta'lim usullari	Muammoli usul, suhbat, munozara, aqliy hujum
Ta'limni tashkillashtirish shakli	Ommaviy, jamoaviy, guruhli.
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, A32 o'lchamdagi qog'ozlar, markerlar, skoch, o'quv materiallar.
Ta'lim berish sharoiti	Guruhlarda ishlashga mo'ljallangan xona.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: tezkor-so'rov

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasining texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	FAOLIYAT MAZMUNI	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1-Kirish (15minut)	1.1 Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot muammoli seminar shaklida borishini ma'lum qiladi. 1.2.Talabalar bilimini suhbat shaklida faollashtiradi (№ ilova). Bilimlarni faollashtirish jarayonida o'quv muammosini yechish bo'yicha izlanuvchilik faoliyatida faol ishtirok etishlari uchun talabalarning egallagan bilimlarini yetarliligini aniqlaydi	Tinglaydilar , yozib oladilar
2-asosiy bosqich (55minut)	2.1. Talabalarga muammoli topshiriqni o'qib beradi (№ ilova). 2.2. Muammoni yechish yo'llarini izlashni tashkillashtirishga o'tadi: birinchi kichik muammoni ifodalaydi, so'ngra muammoli savollarni berib va ular javoblarini muhokama qilib, talabalarni uni yechish	Savollarga javob beradilar. Muammoni echish bo'yicha o'z fikrlarini beradilar.

	yo'lini izlashga, ya'ni birinchi oraliq xulosaga olib keladi. Shu tarzda keyingi muammolarni yechish yo'llarini izlashni tashkillashtiradi. 2.3. Talabalarni kichik guruhlariga bo'ladi, muammoli topshiriqni yechish vazifasini beradi. O'quv materiallar baholash ko'rsatkichlari va mezonlarini tarqatadi (№№ ilova). Taqdimot uchun qog'ozlarni, markerlarni tarqatadi, aqliy hujum qoidasini eslatadi. Guruhlarda ish boshlanganligini ma'lum qiladi. 2.4. Taqdimot boshlanganligini ma'lum qiladi, guruhlar chiqishlarini boshqaradi. Taqdimot vaqtida javoblarga izoh beradi, to'g'ri yechimlarga ehtibor beradi, xatolarni ko'rsatadi. Talabalar bilan birgalikda javoblar to'liqligini baholaydi, savollarga javob beradi. 2.5. Taqdimot yakunlaydi, muammoni yechishda yuzaga kelgan qiyinchiliklarni ko'rsatadi	Kichik muammoni yechish bo'yicha fikrlar bildiradilar, munozara qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar. Guruh vakillari taqdimot qiladilar, Tinglaydilar
3-yakunlovchi bosqich (10minut)	Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar ehtiborini qaratadi. Mustaqil ish uchun topshiriq (№ ilova) beradi.	Tinglaydilar Topshiriqni yozadilar

II.BOB. Andijon Bank kollejida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning holati tahlili.

2.1 Andijon Bank Kollejning pedagogik faoliyati tavsifi.

« Andijon bank kolleji » O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi, O'rta Maxsus kasb-xunar ta'limi markazining 2005 yil 4-oktyabrdagi №209-sonli buyrug'iga asosan tashkil etilgan. Ta'lim muassasasi Andijon shahar Qo'shariq daxasi №5 uyda joylashgan. Kollejni 2011yildan buyon Mansurbek To'xtaboyev Abdumutalibovich boshqarib kelmoqda. Andijon bank kollejining loyixa quvvati 720 o'ringa mo'ljallangan.

2.1.1-jadval

Kollejning boshqaruv faoliyati

№	Familiyasi ismi	Vazifasi	Ushbu vazifada qachondan buyon ishlamoqda
1.	To'xtaboyev Mansurbek	Direktor	2011 yil
2.	To'htasinov Shavkatbek	O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari	2011 yil
3.	Umarov Oybek	Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari	2011 yil
4.	Xamroqulova Gavxaroy	Kasbiy ta'lim ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari	2011 yil
5.	Xudoyberdiyev O'ktam	Xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari	2009 yil
6.	Egamberdiyev Muzaffar	Andijon viloyat prokurori	1 yil
7.	Tolipov Toxir	Andijon viloyat Xalq deputatlari kengashi deputati	2 yil
8.	Ibragimov Xusniddin	Andijon shahar IIB VEUN va XPB inspektori	1 yil

Manba: Andijon Bank kollej ma'lumotlari

Xozirda kunda ta'lim muassasasida 3 yo'nalish bo'yicha 1345 nafar talaba taxsil olmoqda.

1-bosqich 492 nafar talaba shundan 228 nafar o'g'il bolalar va 264 nafar qizlar

2-bosqich 462 nafar talaba shundan 236 nafar o'g'il bolalar va 226 nafar qizlar

3-bosqich 391 nafar talaba shundan 206 nafar o'g'il bolalar va 185 nafar qizlar taxsil olmoqdalar.

Kollej o'quvchilarining millati bo'yicha olganda o'zbek guruxlarni tashkil etadi. Kollejda xozirda quyidagi 3 tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha ta'lim –tarbiya berilmoqda.

1. Bank ishi 3340700
2. Buxgalteriya xisobi va audit 3340900
3. Moliya 3340600

2.1.2-jadval

Andijon Bank kolleji talabalarining 2013-2014o'quv yili uchun mutaxassisliklari bo'yicha kontingenti

O'quv yili 2013-2014	Tayyorlov yo'nalish	Yangi klassifikator bo'yicha kasblar kodi	Tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha o'quvchilar soni		Shu jumladan kurslar buyicha					
					1 kurs		2 kurs		3 kurs	
			Jami	qiz	Jami	qiz	Jami	qiz	Jami	qiz
1	Bank ishi	3340700	561	266	194	101	201	88	166	77
2	Moliya	3340600	245	98	65	22	72	32	108	44
3	Buxgalteriya xisobi va audit	3340900	539	311	233	141	189	106	117	64
	Jami		1345	675	492	264	462	226	391	185

Manbaa: Andijon Bank kolleji ma'lumotlari

Kollejning umumiy maydoni 2,05 ga bo'lib , shundan o'quv va ma'muriy maydoni 1,0 ga, ko'kalamzorlashtirish maydoni 0,8 ga, ekin maydoni 0,25 gektarga

ega. Ta'lim muassasasida 1 ta qishki yopiq sport zali, 1 ta futbol maydoni, 1 ta basketbol maydoni, 1 ta voleybol maydoni, 1 ta tennis maydoni, 120 o'rinli 1 ta faollar zali, ARM va 75 o'rinli o'quv zali mavjud. Kollejda 1 ta oshxona mavjud bo'lib, oshxona 300 o'ringa mo'ljallangan va ijara shartnomasi asosida xizmat ko'rsatiladi.

Kollejda o'quv-auditoriya xonalar soni 37 tani tashkil etib, 3 ta laboratoriya va 2 ta lingofon xonalari mavjud. Auditoriyalar tegishli laboratoriyani tashkil etishga oid jixozlar bilan to'ldirilgan. Kollej ma'muriy binosi o'quv xonalari va auditoriyalari bilan yonma-yon joylashgan.

Respublika viloyatlari ichida Toshkent shaxridan so'ng 2013-yil aprel oyidan kollejda « SMS-Turniket» tizimi joriy etildi. « SMS-Turniket» tizimi kollej talabalarining davomatini oshirishda xamda ota-onalar bilan mustaxkam aloqa o'rnatishda muxim vazifani bajarmoqda.

Ota-onalar bilan xamkorlik aloqasi yaxshi yo'lga qo'yilgan. O'rta maxsus kasb-xunar ta'limi boshqarmasi tasdiqlangan jadval asosida xar oyda bir marta ota-onalar yig'ilishi o'tkaziladi.

Muhtaram Prezidentimizning 2011 yil 21 yanvarda Vazirlar Mahkamasida so'zlagan nutqi asosida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida, kollej bitiruvchilari Markaziy bank Andijon viloyat Bosh boshqarmasi rahbarligida viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari, moliya muassasalari hamda kichik biznes sub'ektlariga darsdan so'ngi amaliyotlari bo'yicha uch tomonlama shartnomalar tuzilgan. Kollejning 2013-2014 o'quv yilidagi bitiruvchilar soni 391 nafarni tashkil etadi. 8 nafar bitiruvchi talabalar bank krediti xisobidan tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun Mikrokredit OATB Andijon viloyat filiali bo'limiga o'z biznes rejalarini taqdim etib 4800000 so'm miqdoridan bank krediti olib o'z faoliyatini yo'lga qo'yishmoqchi. Andijon viloyat Markaziy banki bosh boshqarmasi rahbarligida bitiruvchilarni darsdan so'nggi amaliyotlarini o'tkazish bo'yicha zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar yaratilgan, kollej bilan hamkorlikda bitiruvchilarga tijorat banklaridan "Ustoz- murabbiy"lar biriktirilib, ular bilan

muntazam ravishda o'quvchilarda amaliy bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadida amaliy seminar va uchrashuvlar tashkil etilgan.

Andijon bank kolleji o'qituvchilari tarkibi va pedagogik salohiyati masalalari birinchi o'rinda o'quv jarayonini tashkil etishdagi aloxida omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Kollej 100 nafar xodimlar ishlaydi, shundan 83 nafarini pedagog xodimlar, 17 nafarini texnik xodimlar tashkil etadi. 83 nafar pedagog xodimlardan 1 nafari fan doktori 2 nafari fan nomzodi, 80 nafari oliy ma'lumotli o'qituvchilar yoshlarga ta'lim tarbiya berish bilan birga kasb- xunar sirlarini o'rgatmoqdalar. Kollej pedagoglarining yosh tarkibi bo'yicha o'rtacha yoshi 26-45 yoshni tashkil etib kollej jami pedagoglari sonini asosiy qismini tashkil etadi. Demak kollej ta'limida pedagogik tajini yuqoriligi, tajriba va malakalarga ega o'qituvchilarni yetarliligi bilan aloxida ahamiyat kasb etadi.

Kollejning pedagogik-kadrlar bilan bog'liq ijobiy yoki salbiy omillari va natijalarini tahlil qilishdagi ko'rsatkichlardan biri bu kadrlar qo'nimsizligi ko'rsatkichi xisoblanib, bu ko'rsatkichdan kollej o'qituvchilari uchun yetarli sharoitlarni yaratilganligi, xamda sababsiz kollejdin chiqib ketish omillari yo'qligi bilan xarakterlidir. Kollej ta'limda 2013-2014 o'quv yilida jami 5 nafar o'qituvchi yangi ishga olindi. Undan 3 nafari ayollarni tashkil etadi. Xamda shu o'quv yilida 5 nafar pedagog ishdan bo'shagan. Bundan 1 nafari boshqa o'quv muassasasiga o'tganligi bois, 3 nafari onalik ta'tiligi chiqqanli tufayli, 1 nafari nafaqaga chiqqanligi tufayli. Kollej ta'limida kadrlar qo'nimsizligi darajasi 1%ni tashkil etadi. Andijon bank kolleji ta'limida kadrlar qo'nimsizligi ko'rsatkichini past natijalarda ushlab turishning muxim omillari sifatida kollej ta'limida o'qituvchilarni ilmiy-ijodiy faoliyatini mazmunli tashkil etish va rivojlantirish omillarini o'z ichiga oladi. Xozirda kollej o'qituvchilarining o'quv va ishlab chiqarish ta'limi ishlari samaradorligini oshirishning o'quv-axborot bazasi yaratilib, kollej ma'lumot-axborot fondini kompyuter vositalari, ARM fondi imkoniyatlarini kiritib o'tish lozim.

Andijon bank kollejida o'quv-uslubiy jarayonni tashkil etishda 2013 yil bilan tasdiqlangan o'quv rejalari bilan fanlar o'qitiladi. Barcha fanlar fan dasturlari bilan to'ldirilgan. Kollej ta'limidagi iqtisodiy fanlar bo'yicha "Mutaxassislik fanlari" kafedrasini tashkil etilgan. Kafedraning 24 nafar o'qituvchi-pedagoglari iqtisodiy fanlardan dars mashg'ulotlarini tashkil etib kelmoqdalar. Barcha fan o'qituvchilari dars mashg'ulotiga oid bo'lgan barcha me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlangan.

Andijon bank kollejining "Mutaxassislik fanlar" kafedrasini tomonidan 24ta fan to'garaklari tashkil etilgan va o'z faoliyatni ko'rsatmoqda. O'quvchilarda jinoyatchilikni oldini olish va bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishlari bo'yicha gurux raxbarlari tomonidan to'garaklarga jalb qilingan.

Ta'lim muassasasida tajribali o'qituvchi-pedagoglar tomonidan turli ko'rinishdagi ochiq dars mashg'ulotlari olib borilmoqda. Shu yilning 31-martidan 5-aprel kunlari kollejda ochiq darslar haftaligi bo'lib o'tdi. Ushbu haftalikda "Mutaxassislik fanlari" kafedrasining tajribali o'qituvchilari ochiq dars mashg'ulotlarini olib bordilar. Tashkil etilgan ochiq dars mashg'ulotiga talabalar ota-onalari xam taklif etiladi.

Andijon viloyati xokimligi O'MKXTB tasarrufida Andijon Bank kolleji pedagog xodimlarini malaka oshirish rejasi asosida 20 nafar pedagoglar malaka oshirish kurslaridan o'tishlari belgilangan. 2013-2014 o'quv yilida 17 nafar o'qituvchi malaka oshirish kurslarida o'z mutaxassisligi bo'yicha o'qishga yuborildi. Shuningdek, 8 nafar nopedagoglardan 6 nafari shartnoma asosida Andijon Davlat universitetida tashkil etilgan qayta tayyorlash kurslarida o'qib keldi.

Kollej ta'limida mutaxassislik fan o'qituvchilarining dars mashg'ulotlarining standart talablari darajasidagi omillari qatoriga kollejning o'quv-uslubiy ishlarini tashkil etish holatini ijobiyligini ko'rsatib o'tish mumkin. Bunda kollej ta'limida o'quv jarayonini tashkil etishning omillaridan birinchi o'rinda iqtisodiy fanlarni o'quv adabiyotlar bazasini to'ldirish masalalariga aloxida e'tibor qaratish lozim.

Andijon bank kolleji axborot resurs markazi fondi jami 237 nomdagi darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, badiiy adabiyotlar, elektron qo'llanmalar, ma'ruza matnlari bilan ta'minlanib ularning jami soni 5464 tani tashkil etadi. Bularning 4853 tasi o'zbek tilidagilar 611 tasi rus tilidagi sonlaridir. Xar yili kollej o'quv axborot fondini 100 ga yaqin adabiyotlar bilan to'ldiriladi. Joriy yilda 72 ta o'quv adabiyotlari kollej kutubxonasiga keltirildi. Kollej kutubxonasini fanlar turlari bo'yicha adabiyotlari bilan ta'minlanganlik darajasini olganda umumta'lim fanlari bo'yicha 38 ta nomdagi, jami 3041 ta adabiyotni, maxsus fanlar, badiiy va

№	Adabiyotlar	Necha nomda	Jami
1	Umumta'lim fanlar	38	3041
2	Maxsus fanlar	40	1270
3	Badiiy adabiyotlar	96	631
4	Siyosiy adabiyotlar	30	392
5	Elektron adabiyotlar	33	130
	Jami	237	5464

siyosiy adabiyotlar bo'yicha 199 nomdagi jami 2423 tani tashkil etadi. Kollej kutubxonasidagi elektron resurslar soni 33 nomda va jami 130 tani tashkil etadi.

2.1.3–javdal

Kollejda o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganligi

Manbaa: Andijon Bank kollej ma'lumotlari

Andijon bank kollejida o'quv jarayonini asosini tashkil etuvchi omillardan biri bu kollej real ta'lim vositalari, moddiy vositalari kiritilib, kollejda jami 37 ta o'quv auditoriya xonalari mavjud. Barchasi o'quv jarayoniga mos keladi. Kollejdagi o'quv auditoriyalari va jixozlanish darajasi kollejning yangi binoda ekanligi va kollejga moliya muassasalari tomonidan axborot texnik vositalarni keltirilishi va xozirgi kunda 1 ta bank ishi o'quv amaliyoti xonasini mavjudligi kollejni o'quv jarayoni moddiy bazasini yaroqlilik darajasini ta'minlashdagi omillardan biridir.

Kollejdagi bank ishi o'quv amaliyoti xonasidan tashqari ishlab chiqaruvchi korxonalar, byudjet tashkilotlari va boshqa korxonalar tomonidan vasiylik va xomiylik asosidagi binoni jixozlash va o'quv auditoriya xonalarini texnik vositalar bilan to'ldirish mavjud emas.

Kollejdagi moddiy-texnik bazasining holatini energetika ta'minoti masalasisiz tasavvur etish qiyin. Bunda kollejdagi suv ta'minoti mavjud. Elektr ta'minoti markazlashgan. Issiqlik ta'minoti avtonomlashtirilgan. Telekommunikatsiya aloqa liniyalari mavjud.

Kollejdagi kelgusidagi o'qituvchi-pedagogik jamoani xo'jalik mablag'lari asosidagi kompyuter vositalari, o'quv auditoriya jixozlari va boshqa vositalar bilan to'ldirish omillariga aloxida e'tibor qaratish lozim. Bunda o'qituvchilarni o'z malakalarini sotish, pul ishlab topish, xo'jalik shartnomalarini boshqa omillarini ko'rsatib o'tish kabilar kiritiladi.

Andijon bank kolleji ta'lim jarayoni mazmunini tashkil etuvchi asosiy omillardan biri kollejning kollejdagi o'quv rejasiga kiritilgan fanlar va amaliyot ishlariga ajratilgan o'quv auditoriyalari va moddiy-texnik ta'minoti masalasi kollej ta'limida umumta'lim, umumkasbiy, maxsus, o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlari uchun ajratilgan xonalarning o'quv fanlarining dasturiy talablarida ko'rsatilgan mezonlari talablari darajasi holati va o'quv fanlariga kollejdagi mavjud 37 ta auditoriyani moslik darajasi holatini keltirib o'tamiz. Bunda kollej o'quv fanlarini kollej moddiy-texnik sharoitlarining talab darajasidagi mosligi va o'qitishning kollej talabalaridagi iqtisodiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdagi amaliy ta'minoti darajasi holatini keltirib o'tamiz.

2.1.4-jadval:

Kollejda o'quv fanlari mazmunini tashkil etuvchi ta'lim vositalari holati

№	Fanlar	Auditoriyalar moddiy-texnik bazasi	Biriktirilgan xonalar soni	O'zlashtirish darajasining moddiy imkoniyatlarini oshirishga ta'siri
1	Umumta'lim	2 ta laboratoriya	12	Xorijiy tillarni

	fanlari	xonasi, 3 ta lingofon xonalari, organayzerli ta'lim vositalari, jixozlangan auditoriya, energiya ta'minoti		o'zlashtirishni rivojlanishida kollej o'quvchilarini ingliz tilini bilish darajasi ifodali o'qish orqali shakllantirilishi
2	Umumkasbiy fanlar	Organayzerli ta'lim vositalari, o'quv jixozlari xonalari, taqdimot materiallari xonalari	9	Korxonalarda ish faoliyati operatsiyalarini bajarishga oid ishlarni tashkil etish, iqtisodiy ta'limning xisob ishlarini tashkil etishni rivojlantirilishi
3	Maxsus fanlar	1 ta bank ishi o'quv amaliyoti xonasi va tajriba-sinov ishlari o'quv xonalari, o'qitishning moddiy vositalari	11	Tajriba-sinov ishlarini bank va ishlab chiqarish amaliyotlariga oid amaliy ko'nikmlarini shakllantirilishi
4	O'quv va ishlab chiqarish amaliyoti xonalari	Organayzerli ta'lim vositalari va 1ta bank ishi o'quv amaliyoti xonasi	5	Amaliyot davomida ishlab chiqarishga moslashtirish ishlarini tashkil etilishi va bank amaliyoti xonasida bank tizimi dasturini o'rganish

Manba: Andijon Bank kollej ma'lumotlari

Kollej ta'lim tizimi moddiy imkoniyatlarini oshirishning amaliy ahamiyati kollej talabalarini iqtisodiy ta'lim kasbiga yo'naltirishning muxim omillari sifatida e'tirof etiladi. Andijon bank kolleji ta'limi amaliyotida kollejning o'quv jarayoni ishlab chiqarishning amaliy dasturiy xamda ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish orqali kollej talabalarining ishlab chiqarishga moslashtirish masalasi birinchi o'rindagi omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. O'z navbatida kollej asosiy o'quv binosi markazida tashkil etilgan bank ishi o'quv amaliyoti xonasida kollej

bank ishi yo'nalishi talabalarining amaliy ishlarni va bank tizimi dasturiy ta'minotida ishlashning tartiblari va mezonlari doirasidagi ishlarni tashkil etish birinchi o'rinda kollej ta'limida o'quv jarayoni ta'limining amaliy va kasbiy maxoratni shakllantirishning muxim omillarini o'z ichiga oladi.

2.2. Andijon Bank Kollejida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish holati tahlili

Andijon Bank kollejida dars mashg'ulotlarini tashkil etishning omillari, sharoitlari, ta'lim usullari, o'qitishni ilmiy asosda tashkil etish kollej o'quvchilarida kasbiy malaka va ko'nikmalarni shakllantirish, o'quv jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish holati yuzasidan tahlil natijalarini keltirish, kollej ta'limida o'quv jarayonining sifatini oshirishga nisbatan amaliy takliflarni kiritish, ta'limni rivojlantirishning muhim omillari sifatida e'tirof etiladi. Kollejning mutaxassislik fanlar kafedrasining o'qituvchilari iqtisodiy fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarning turli ko'rinishlaridan foydalangan holda darslarni tashkil etmoqda.

Bu o'z navbatida kollejdagi iqtisodiy fanlarining o'quv dasturiy ta'minoti standart talablariga mos ravishda fan o'qituvchilarini o'qitish usullarini ishlab chiqishlari va kollej o'quv jarayoniga tadbiq etish masalalari birinchi o'rindagi omillar qatorida e'tirof etilmoqda. Shu boisdan kollejda iqtisodiy fanlarni yangi pedagogik texnologiyalari yordamida o'qitish orqali kollej talabalarini o'zlashtirish darajalari yaxshilashga erishilmoqda.

Kollej ta'lim soxasidagi dars samaradorligini oshirish o'qituvchi va o'quvchi munosabatining tabiatiga ham bog'liq. Darsda o'qituvchi "avtoritar" o'z hukmini o'tkazuvchi sifatida emas, o'quvchining bilim olish uchun ko'mak beruvchi, maslaxatchi singari munosabat shakllansa, o'quv jarayonini demoklashtirishga omil bo'ladi. Dars jarayonida o'qituvchining tayyor bilimlarini oluvchi passiv tinglovchi emas, faol mushoxada egasiga aylantirishda ta'limning noan'anaviy usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ushbu natijalarga erishishda har bir dars mavzusiga mos dars turini belgilash muhimdir.

Andijon Bank kolleji ta'limi samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda ochiq dars mashg'ulotlarini tashkil etilayotganligi o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Ushbu fikrlarning isboti sifatida ta'lim muassasasining kafedralarida rejalashtirilgan ochiq dars mashg'ulotlarining pedagogik texnologiyalar asosida olib borilayotganini aytish mumkin. Jumladan kollejning "Mutaxassislik fanlar" kafedrasining "Buxgalteriya xisobi" fani o'qituvchisi X. Bo'riboyeva, "Iqtisodiyot nazariyasi" fani o'qituvchisi N. Yaqubova "Byudjet tizimi" fani o'qituvchisi G. Turg'unova, "Pul kredit va banklar" fani o'qituvchisi R. To'ychibekova, "Mikroiqtisodiyot" fani o'qituvchisi F. Bakirovalarning ilg'or pedagogik texnologiyalarning bir nechtasini uyg'unlashtirgan holda dars mashg'ulotlarini tashkil etishi o'quvchilarning fanga oid bilim va ko'nikmalarni mustaxkamlashda o'qituvchining pedagogik maxoratini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etayotganini aytib o'tish joizdir.

Kollej ta'limida barcha yo'nalishlardagi iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasi asosida dars mashg'ulotlari olib borilmoqda. Kollejning Moliya yo'nalishi 1-kurs 125-gurux talabalari tomonidan "Mutaxassislik fanlari" kafedra o'qituvchisi Nargiza Yaqubovani "Iqtisodiyot nazariyasi" fanidan tajriba-sinov sifatida muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalangan holda tashkil etilgan dars mashg'ulotini tahlil qildim.

Biz nazariy jixatdan ko'rib o'tgan muammoli ta'lim texnologiyasi asosida dars tashkil etish mustaqil fikrlovchi o'quvchini shakllantiradi.

Muammoli ta'lim – o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat vujudga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarga faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. Shuningdek muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi-talabalarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarni, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy

tadqiqot usulini yuzaga keltiradi. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli vaziyatlar metodi tayyorlov, tanishuv, tahlil va yakuniy qaror qabul qilish bosqichlariga bo'lingan holda olib boriladi.

Ushbu ta'lim texnologiyasida mavzu yuzasidan o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga "Muammoli vaziyat" yaratiladi. «"Muammoli vaziyat" o'quvchi talabalarni o'rganilayot mavzu bo'yicha muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablarini, oqibatlarini o'rganish, yechimlarni topishga undash orqali ularda muayyan ko'nikma malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi»⁷.

Kollej o'qituvchisi N. Yaqubovanning "Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar" mavzusidagi muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanib tashkil etilgan amaliy mashg'ulotning tahlil natijalarini keltirib o'taman.

Fan nomi: "Iqtisodiyot nazariyasi"

Kurs , guruh: 1-kurs 125- guruh

Mavzu : Iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar

Maqsad: Talabalarda iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar haqida tushuncha berish, ularni shakllantirish, olingan bilimlarni mustahkamlash.

Ta'limiy: Talabalarni mavzuga oid bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: Talabalarga o'z Vataniga bo'lgan mehr-muhabbatni uyg'otish.

Rivojlantiruvchi: Mavzu yuzasidan berilgan topshiriqlar orqali talabalarni yozma va og'zaki nutqini rivojlantirish.

Kutilayotgan natija: Talabalarni mavzuga oid bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga erishish.

2.2.1-Jadval:

Darsning texnologik moduli

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 15-30 ta
--------------	--------------------------

⁷D. Ro'ziyeva va boshqalar Interfaol metodlar mohiyati va qo'llanilishi. Metodik qo'llanma Toshkent 2013yil 44-bet.

O'quv mashg'ulot shakli	Muammoli seminar
O'quv mashg'ulot rejasi	1. Iste'molning mazmuni. Sof milliy mahsulotning taqsimlanishi va iste'mol fondining shakllanishi. 2. Jamg'armaning iqtisodiy mazmuni va manbalari. Nominal va real jamg'arma. 3. Iste'mol va jamg'armaga o'rtacha hamda so'nggi qo'shilgan moyillik. 4. Investitsiyalarning mazmuni, tarkibi, turlari va darajasini belgilovchi omillar. 5. O'zbekistonda investitsion faoliyatni ta'minlash.
O'quv mashg'ulot maqsadi: : mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish, muammoli vazifalarni hal etish ko'nikmalarini hosil qilish	
Pedagogik vazifalar: mavzu bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlash; o'quv bilimlarni tizimlashtirish, mumlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish: ko'nikmalarini shakllantirish; muammoli masalalarni yechish ko'nikmalarni rivojlantirish; kommunikativ bilimlarni rivojlantirish.	O'quv faoliyat natijalari: -iste'mol, jamg'armaga va investitsiyaga, nominal va real jamg'armaga ta'rif berish; -iste'mol va jamg'armaga bo'lgan o'rtacha va so'nggi qo'shilgan moyilliklarni aytib berish, formulasini yozish; - iste'mol, jamg'arma va investitsiyaga bo'lgan talab funktsiyalari grafigini chizib, sharhlab berish; - iste'mol, jamg'arma va investitsiyalarga ta'sir etuvchi omillarni sanab berish.
Ta'lim usullari	Hamkorlikda o'qish, muammoli usul, prezentatsiya, sinkveyn texnikasi.
Ta'limni tashkillashtirish shakli	Ommaviy, jamoaviy, guruhli.
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, A32 o'lchamdagi qog'ozlar, markerlar, skoch, o'quv materiallar.
Ta'lim berish sharoiti	Guruhlarda ishlashga mo'ljallangan xona.
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: tezkor-so'rov

2.2.2.-jadval

Darsning texnologik xaritasi

Faoliyat bosqichlari	FAOLIYAT MAZMUNI	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi

1-Kirish (15minut)	1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi. 1.2. Dars "hamkorlikda o'qish" usulidan foydalangan holda tashkil etilishini e'lon qiladi 1.3. Har bir o'quvchi guruh faoliyatiga mos holda individual bahosini olishi, guruhning birgalikdagi faoliyati prezentatsiyada aks etishi zarurligini eslatadi. 1.4.Seminarda ishlash tartibi, reglamentni (1-ilova), sinkveyn texnikasini eslatadi. O'zaro baholash varaqlarini tarqatadi (4-ilova) ularning mazmunini izohlaydi.	Tinglaydilar, yozib oladilar
2-asosiy bosqich (55minut)	2.1. Talabalarga muammoli topshiriqni o'qib beradi (№ ilova). 2.2. Muammoni yechish yo'llarini izlashni tashkillashtirishga o'tadi: birinchi kichik muammoni ifodalaydi, so'ngra muammoli savollarni berib va ular javoblarini muhokama qilib, talabalarni uni yechish yo'lini izlashga, ya'ni birinchi oraliq xulosaga olib keladi. SHu tarzda keyingi muammolarni yechish yo'llarini izlashni tashkillashtiradi. 2.3. Talabalarni kichik guruhlariga bo'ladi, muammoli topshiriqni yechish vazifasini beradi. O'quv materiallar baholash ko'rsatkichlari va mezonlarini tarqatadi (№ ilova). Taqdimot uchun qog'ozlarni, markerlarni tarqatadi, aqliy hujum qoidasini eslatadi. Guruhlarda ish boshlanganligini ma'lum qiladi. 2.4. Taqdimot boshlanganligini	Savollarga javob beradilar. Muammoni yechish bo'yicha o'z fikrlarini beradilar. Kichik muammoni yechish bo'yicha fikrlar bildiradilar, munozara qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar.

	ma'lum qiladi, guruhlar chiqishlarini boshqaradi. Taqdimot vaqtida javoblarga izoh beradi, to'g'ri yechimlarga e'tibor beradi, xatolarni ko'rsatadi. Talabalar bilan birgalikda javoblar to'liqligini baholaydi, savollarga javob beradi. 2.5. Taqdimot yakunlaydi, muammoni yechishda yuzaga kelgan qiyinchiliklarni ko'rsatadi	Guruh vakillari taqdimot qiladilar, Tinglaydilar
3-yakunlovchi bosqich (10minut)	3.1. Guruhlarda bajarilgan ishning natijalarini muhokama qiladi, baholaydi va xulosa qiladi. 3.2. Mustaqil ta'lim uchun topshiriq beradi: Insert usuli bo'yicha keyingi mavzuni o'qish va jadvalni to'ldirish.	Tinglaydilar Topshiriqni yozadilar

Yuqoridagi texnologik model va xarita asosida dars mashg'ulotini boshlandi. O'qituvchi talabalarga amaliy darsda ishlashning reglamenti va tartibi(1-ilova), dars mashg'ulotining muammoli vaziyatlarini (2-ilova), o'quv topshiriqlari (3-ilova), sinkvey texnikasi(4-ilova), va baxolash mezonlari (5-ilova) tartibi bilan talabalarni tanishtirib o'tdi.

1-ilova.

Seminarda ishlash reglamenti va tartibi

1. Guruhda ishlash va qog'ozda prezentatsiyani yozish – 15 min.
2. Ish natijalari prezentatsiyasi bilan taqdimot – 5 min.
3. Guruh faoliyatini baholash va jamoa bo'lib muhokama qilish – 15 min.
4. O'qituvchi tomonidan umumlashtirish – 5 min.

2-ilova

Muammolarni / kichik muammo va xulosalarni shakllantirish

Muammoni shakllantirish: Iste'mol, jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muammolari.

Birinchi kichik muammoni shakllantirish: Iste'mol va jamg'armaning iqtisodiy mazmuni nima hamda ularni belgilovchi omillar nimalar?

Kichik muammoni hal etish uchun savollar:

1. Iste'molning va jamg'armaning mazmun-mohiyati nimada?
2. Iste'mol va jamg'arma bir-birlari bilan qanday bog'liqlikda?

Ikkinchi kichik muammoni shakllantirish: O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti sharoitida subyektlarni investitsion faolligini qanday qilib oshirish mumkin?

Kichik muammoni hal etish uchun savollar:

1. investitsiyaning mazmun-mohiyati ?
2. O'zbekistonda investitsion faollikni ta'minlash yo'llari?

3-ilova.

O'quv topshiriqlar.

Ekspert varag'i №1.

Siz "Iste'mol mazmuni. Sof milliy mahsulotni taqsimlash va iste'mol fondini shakllantirish" savoli bo'yicha ekspertsiz.

Sizning vazifangiz – uning mazmuni va mohiyatini boshqalarga tushuntirish.

1. Savolni yoritishda grafik organayzerdan foydalaning.
2. "Iste'mol" so'ziga sinkveyn tuzing.
3. Umumlashtiruvchi xulosa chiqaring.

Ekspert varag'i №2.

Siz "Jamg'arish mazmuni va manbalari. Nominal va real jamg'arma. Iste'mol va jamg'armaga bo'lgan o'rtacha va qo'shilgan moyillik." savollari bo'yicha ekspertsiz.

Sizning vazifangiz – uning mazmuni va mohiyatini boshqalarga tushuntirish.

1. Savolni yoritishda grafik organayzerdan foydalaning.
2. "Jamg'arma" so'ziga sinkveyn tuzing.
3. Umumlashtiruvchi xulosa chiqaring.

Ekspert varag'i №3.

Siz "Investitsiyaning mazmuni, tarkibi va turlari uning darajasini aniqlovchi omillar." savoli bo'yicha ekspertsiz.

Sizning vazifangiz – uning mazmuni va mohiyatini boshqalarga tushuntirish.

1. Savolni yoritishda grafik organayzerdan foydalaning.
2. “Investitsiya” so’ziga sinkveyn tuzing.
3. Umumlashtiruvchi xulosa chiqaring.

4-ilova.

“Sinkveyn” (5 qator) texnikasi

Maqsad – kategoriyaga xarakteristika berish

Sinkveyn sxemasi:

1-qator – tushuncha

2-qator – tushunchani tavsiflovchi 2 sifat

3-qator – ushbu tushuncha vazifalari to’g’risidagi 3 ta fe’l

4-qator – ushbu tushuncha mohiyati to’g’risidagi 4 so’zdan iborat so’z
birikmasi

5-qator – ushbu tushuncha sinonimi.

5-ilova.

Baholash ko’rsatkichlari va mezonlari

Dars mashg’ulotini o’zlashtirish natilalarini xar bir guruh boshqa guruhlar taqdimotni baholaydi, mezonlar bo’yicha ballarni jamlaydi. Ya’ni:

Baholash ko’rsatkichlari va mezonlari	Maksima 1 ball	1guruh	2guruh	3guruh
Echimlar:	2	2	2	3
-muammoni va quyi muammoni to’g’ri shakllantirish;	5	4	3	4
-yechimning muammo va quyi muammo shakliga mos kelishi;	4	4	3	3
-mantiqiylik, aniqlik, xulosalarning qisqaligi.	5	5	5	4
Taqdimot:	5	3	4	4
-javoblarning aniqligi va tushunarliiligi;	3	3	3	3
-har bir guruh ishtirokchisining faolligi (savollar, qo’shimchalar).	2	2	2	2
Reglament	3	3	2	3

Umumiy ballar yig'indisi	29	26	24	26
--------------------------	----	----	----	----

O'qituvchi tomonidan talabalarni baxolash jarayonida guruxlarda faol qatnashgan talabalar baxolandi. Ushbu baxolash nafaol talabalarni kelgusi darslarda aktiv qatnashishga va o'z fikr muloxazalarini erkin bayon etishga undadi.

Talabalar o'z mutaxassisliklari uchun zarur bo'lgan savollarga javob oldilar va ushbu mashg'ulot davomida iste'mol, jamg'arma va investitsiyalar mazmun mohiyatini, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yanada teranroq anglab yetdilar.

Mashg'ulotlar jarayonida o'qituvchi tomonidan "Muammoli vaziyat" strategiyasini qo'llash quyidagi tartibda amalga oshirildi.

- Mavzu yuzasidan muammoli vaziyatni shakllantirildi
- Muammoli vaziyat mazmuni bilan o'quvchi (talaba)lar tanishtirib o'tildi
- O'quvchi (talaba)lar kichik guruh (juftlik)larga ajratib oldi
- Guruh (juftlik)larning yechim borasidagi fikrlari umumlashtirildi
- Guruh (juftlik)lar tomonidan taqdim etilgan yechimlarning maqbullik darajasi o'rganildi (ommaviy muhokama qilish, ekspertlar muxokamasidan o'tkazish.)
- Eng to'g'ri, maqbul yechim aniqlandi.

Yuqorida keltirib o'tilgan muammoli vazifalar uchun berilgan topshiriqlar talabalar tomonidan yechildi va tajriba-sinovi asosida o'tkazilgan mashg'ulotda quyidagi o'zlashtirish natijalariga erishildi.


2.2.2-jadval

Moliya yo'nalishi 125-gurux talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichi tahlili.

Yo'nalish, kurs, gurux	Darsda qatnashgan talabalar soni	O'zlashtirish ko'satkichi (5balli reyting tizimi)		
		"5"	"4"	"3"
"Moliya" 1-kurs 125-gurux	28 ta	12	10	6

Jami (% larda)		43%	36%	21%
----------------	--	-----	-----	-----

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, muammoli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan dars mashg'uloti talabalarni o'zlashtirish darajasini va fikrlash qobiliyatini oshganligini quyidagi diagramma orqali ko'rishimiz mumkin:



2.2.1-diagramma. Moliya yo'nalishi 125-guruh talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichi.

Andijon Bank kolleji Moliya yo'nalishi 123-gurux talabalariga yuqoridagi mavzu ya'ni "Iste'mol, jamg'arma va investitsiya" mavzusida an'anaviy tarzda tashkil etilgan dars mashg'ulotining talabalar tomonidan o'zlashtirish ko'rsatkichlarini ko'rib o'tamiz.


2.2.3-jadval

Moliya yo'nalishi 123-gurux talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichi tahlili

Yo'nalish, kurs, gurux	Darsda qatnashgan talabalar soni	O'zlashtirish ko'rsatkichi (5 balli reyting tizimi)		
		"5"	"4"	"3"

“Moliya” 1-kurs 123-gurux	28 ta	7	9	12
Jami (% larda)		25%	32%	43%

Bundan koʻrinib turibdiki, anʼanaviy taʼlim asosida olib borilayotgan dars mashgʻulotlari talabalarning fanga boʻlgan qiziqishi, oʻz ustida ishlashi va mustaqil fikrlashi, oʻzlashtirish natijasiga salbiy taʼsir koʻrsatishi, belgilangan maqsadga erishilmayotganligini xam quyidagi diagramma orqali koʻrishimiz mumkin.



2.2.2-diagramma. Moliya yoʻnalishi 123-guruh talabalari oʻzlashtirish koʻrsatkichi.

Yuqoridagi tahlillar shuni koʻrsatadiki, anʼanaviy tarzda tashkil etilgan dars mashgʻuloti samarasidan, tajriba sinov orqali oʻtkazilgan “muammoli taʼlim texnologiyasi” asosida tashkil etilgan darsning ijobiy natijasini tahlil maʼlumotlar orqali koʻrib oʻtdik va quyidagi xulosaga keldik, tajriba sinov orqali oʻtkazilgan “muammoli taʼlim texnologiyasi” asosida tashkil etilgan dars talabalarning darsda qatnashish faolligi, mustaqil fikr yuritish, oʻzlashtirish darajasi yuqoriligi xamda oʻqituvchining mavzudagi belgilab olgan va oʻz oldiga qoʻygan maqsadiga xamda ijobiy natijaga erishadi.

3-BOB. Andijon bank kollejida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish yo'llari.

3.1. Andijon Bank kollejida ta'lim texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish yo'llari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va shaxsan hurmatli Prezidentimiz I. A. Karimov ta'lim tizimini takomillashtirish, rivojlantirish va tub maqsadlarini aniqlab berish masalalariga jiddiy e'tibor berib kelmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirligi va o'rta maxsus ta'lim muassasalari rahbariyatlari o'z navbatlarida dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida, jumladan AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va boshqa davlatlarda qo'llanilayotgan zamonaviy o'qitish metodlari va texnologiyalaridan andoza olib, ta'lim islohatlarini izchillik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirib kelmoqdalar. Davlat ta'lim standartlarining va o'quv rejalarining yangi avlodi yaratilmoqda.

Ta'limni fundamentlashtirish maqsadida o'quv rejaları qayta ko'rib chiqildi, yuqori texnika-texnologiyalarni qamrab olgan fan dasturlari yaratildi, ko'p yo'nalishlar va fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlarining zamon talablariga, yetuk raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash maqsadlariga qaratilgan yangi avlodlari chop etildi.

Andijon bank kolleji ta'limida o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari va usullaridan foydalanishni takomillashtirish xamda ta'lim vositalari asosida o'zlashtirish, kasbga moslashtirish ishlarini shakllantirish birinchi o'rinda dars mashg'ulotlarini ilmiy darajasini va axborot texnologiyalaridan foydalanishni shakllantirish omillariga bog'liqdir. Shu boisdan iqtisodiy ta'limning o'qitish saviyasini ilmiy va texnologiyalashtirishning omillari va metodik asoslarida birinchi o'rinda kollejdagi iqtisodiy ta'lim fan o'qituvchilarining ilmiy tadqiqot ishlari

samaradorligini oshirish omillarini ishlab chiqish va o'qitishda axborot texnologiyalari bazasini takomillashtirish ishlarini rivojlantirish lozim.

Bugun pedagogik texnologiya- ta'lim berishning texnik usullari yoki kompyuter vositalaridan foydalanish sohasidagi tadqiqot sifatida emas balki bu ta'limiy samaradorlikni oshiruvchi omildir. Tehnika rivojlanib borayotgan davrda o'quvchilarni zamon talabiga mos har tomonlama yetuk bilimli, zukko, qobiliyatli qilib tarbiyalash eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Andijon bank kolleji o'quv jarayonida ta'lim texnologiyalardan samarali foydalanish va o'qitishni ta'lim texnologik imkoniyatlarini oshirish omillarida kollejning iqtisodiy fanlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida olib borilayotganini tahlil misolida ko'rib o'tdik. Ushbu tahlil natijalarida o'qitishda ta'lim texnologiyalarining afzalliklari va ta'lim mezonlaridan foydalanishning omillarini keltirib o'tildi. Bu kollej ta'limida kelgusidagi yo'nalishlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini texnologik imkoniyatlarni oshirish, o'quvchilarni mehnat jarayoniga moslashtirish omillarini rivojlantirish jarayonlari sifatini shakllantiradi. Shu boisdan ushbu bobda kollej amaliy ta'limining o'qitish texnologiyalari va ta'limning yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni rivojlantirish metodlarini ishlab chiqishda amaliy takliflarni va xulosalarni shakllantirib o'tish bevosita ta'lim jarayonida kasbiy malakaga ega bo'lgan raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishning muhim omillarini o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda talabalar o'quv faoliyati zamonaviy texnika va o'quv jihozlari, malakali pedagog hodimlar bilan ta'minlangan. Bu esa, mazkur jarayonning samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Andijon bank kollejida ta'lim tizimida ta'lim tarbiya samaradorligini oshirish jiddiy vazifalardan biri bo'lib turibdi. Buning uchun har bir o'qituvchi o'z fanini o'qitishning eng samarali zamonaviy pedagogik texnologiyalarni puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni uzluksiz o'rganib borishi orqali o'z kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi talab qilinadi. Ta'lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirish kelgusi taraqqiyotimizning asosi ekanligini xar bir

pedagogga ma'lumdir. Shunday ekan ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda o'qituvchilardan o'z ustida ishlash va malaka tajribalarni oshirish talab etiladi.

Kollej ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash va ta'lim – tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko'tarishdan asosiy maqsad talabalarning zamonaviy bilim va kasbga ega bo'lishini jamiyatda munosib o'rin egallashini ta'minlashdan iborat hisoblanadi. Ta'limni yangi imkoniyat va talablar asosida o'qitish xamda ta'limni texnologiyalashtirish axborot texnologiyalariga asoslangan zamonaviy ta'lim texnologiyalarni tadbiq qilishni taqazo etadi.

Kollej ta'limida ta'lim texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirishning asosiy omillaridan biri bu ta'lim jarayonida o'qitishning barcha texnik vositalar bilan ta'minlanishi hisoblanadi. Ta'lim jarayonida o'qitishning texnik vositalaridan foydalangan holda tashkil etilgan dars mashg'ulotlari talabalarda quyidagi masalalarini xal qilishga erishish mumkinligini ko'rsatdi:

- ta'limning ilmiylik va sistemaliligini ta'minlash;
- ko'rgazmalilikni oshirish;
- o'quvchilarning bilim olishga ishtiyoqini oshirish;
- o'quvchilarning chuqur va mustaxkam bilim olishini ta'minlash;
- o'quv materialni o'rganish va o'zlashtirish sur'atini tezlashtirish;
- ta'limni individuallashtirish;
- bilimlarning o'zlashtirilishini nazorat qilish sistemasini amalga oshirish;
- ma'lumotni uzatish va o'quvchi tomonidan qayta ishlash sur'atini oshirish;
- o'quvchilarning darsga bo'lgan e'tiborini kuchaytirish;
- o'quvchilarda mustaqil bilim olish malaka va ko'nikmalarini xosil qilish;

Kollej ta'limida ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni rivojlantirishda yana bir omil bo'lib, muassasaning axborotlar bazasini takomillashtirish hisoblanadi. Iqtisodiy axborotlar bazasini takomillashtirish, o'quvchilarni o'zlashtirish darajasi

imkoniyatlarini oshirish, o'quvchilardagi iqtisodiy ta'lim saviyalarini shakllantirish, ta'lim omillarini uslubiy materiallarini yaratish masalalariga doir ishlarni amalga oshirish, birinchi o'rinda kollejdagi fan o'qituvchilarining iqtisodiy fanlarni o'qitishning axborot-uslubiy ta'minotini yaratishning omillarini o'z ichiga oladi.

Andijon Bank kollejida iqtisodiy yo'nalishda o'qitiladigan barcha fanlarni zamonaviy ta'lim texnologiyalar asosida o'qitishni takomillashtirish uchun avvalo quyidagilarga e'tiborni qaratmoq lozim:

- ta'lim muassasasi moddiy texnik bazasini takomillashtirishga;
- o'qitiladigan fanlardan darslik, o'quv qo'llanmalarining ta'minotiga;
- ta'lim muassasasidagi o'qituvchilarda pedagogik maxoratni rivojlantirishga;
- nazariy va amaliy o'qitishda pedagogik texnologiyalarining turli ko'rinishlarini yaratishga ;
- muammoli vaziyatlarni yaratish, yechimini topish yo'llarni izlashga;
- dars jarayonida talabalarning faolligini oshiruvchi ta'lim texnologiyalarini yaratishga;
- muammoli masalalar orqali talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga;
- mavzuga taalluqli bo'lgan tarqatma materiallarning zamonaviy, xilma-xil bo'lishligiga;
- dars jarayonida zamonaviy texnik vositalardan samarali foydalanishni tashkil etish va x.k.

Barcha fikrlarni e'tiborga olib aytish mumkinki, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ular asosida yaratilgan interfaol usullar kun sayin takomillashtirilib boradigan ilm-fan, ta'lim-tarbiya va kasbning xususiyatlariga mos xolda qo'llanmog'i lozim.

3.2. Kollej ta'limida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 2003-yil 28-may «Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan 100 innovatsiyalar to'grisidagi hay'at qaroriga ko'ra, 2003/2004 – o'quv yili «Ta'lim sifatini oshirish yili», deb belgilandi. Ta'lim islohatining xozirgi sifat bosqichida o'qituvchi-pedagoglar oldida yangi muhim vazifa qo'yildi. O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 2003-yil 28-may 5/1 sonli buyrug'iga muvofiq fanlar bo'yicha muammoli ma'ruzalar matnini ishlab chiqish va ularni 2003/2004 o'quv yilidan boshlab izchillik bilan o'quv jarayoniga tadbiq etish belgilandi. Qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlash bo'yicha Andijon Bank kolleji ta'lim jarayonida xam ta'lim sifatini oshirishga aloxida e'tibor kelinmoqda.

Andijon Bank kollej ta'limida iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyasi umumqabul etilgan shaklda, odatda, intellektual yondoshish talab etiladigan mavzu va fanlarda qo'llanilib kelinmoqda. Muammoli ta'lim texnologiyasi ko'pincha, o'quv fanlarining mazmuni va uni o'zlashtirish metodikasiga to'xtalib o'tadi; evristik o'qitish ta'lim metodologiyasini belgilaydi va bilimning nazariy elementlarini refleksiv yaratishlarga qaratilgan, o'quvchilarda o'qish maqsadini o'ylash va shaxsiy ta'lim mazmunini hosil qilish xissiyotini ko'zlaydi.

Muammoli ta'lim texnologiyasida muammoning murakkabligiga, talabalarning bilim va mahoratlari darajasi, vaziyat va yechimlarni izlash ko'nikmalari, didaktik zarurligiga qarab, o'qituvchi bilan talabalar o'rtasidagi o'zaro harakatlar uch darajada bo'lishi talab etiladi:

- **birinchi daraja** – o'qituvchining o'zi muammoni qo'yadi, uni ifodalaydi va talabalarni muammoli vaziyatni yechish yo'llarini mustaqil izlashga qaratadi;

- **ikkinchi daraja** – o'qituvchi muammoli vaziyatni faqat yaratadi, talabalar esa muammoni mustaqil ravishda ifodalaydi va uni hal etadi;

- **uchinchi daraja** – o'qituvchi talabalarni muammoli vaziyatga faqat «keltiradi», ularni mustaqil izlash, qidirish faoliyatiga yo'naltiradi, bu faoliyatga rahbarlik qiladi va natijalarni baholaydi, talabalar esa muammoni mustaqil ravishda anglab tushunib oladi, uni ifodalaydi va yechish yo'llarini qidiradi.

Andijon Bank kollejida iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalardan foydalanish istiqbollariga quyidagi holatlarda erishiladi, ya'ni ta'lim jarayoni davomida o'qituvchi o'quv materialining mohiyatini uch xil bayon qilish va talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini uch xil holda tashkil etmog'i lozim. Ya'ni, o'quv materialini: monolog; fikr yuritish va muhokama qilish; dialogli bayon qilish orqali, topshiriqlarni esa: evristik; tadqiqotli va pragrammali usullarda berishi talab etiladi.

Monologli bayon etishda o'qituvchi muammoli vaziyat sharoitida o'z ma'ruzasida yangi tushunchalar, faktlarning mazmun-mohiyatini tushuntiradi, talabalarga fanning tayyor xulosalarini aytib beradi.

Fikr yuritib bayon qilish metodida birinchi variant – o'qituvchi muammoli vaziyat yaratib, bor materialni tahlil qiladi, xulosalar chiqaradi, fikrlarni umumlashtiradi. Ikkinchi variant – o'qituvchi mavzuni bayon etishi borasida darsni suhbat – ma'ruza shaklida olib boradi. Bunda bilim orttirish jarayonining mantiqiy asosida fikr yuritib, ilmiy izlanishning sun'iy logikasini (logika – fikr yuritish qonunlari to'grisidagi fan; ichki qonuniyatlar) yaratadi.

Dialogli bayon metodi orqali - o'qituvchi guruhdagi talabalar bilan muloqatda bo'ladi. O'qituvchi o'zi yaratgan muammoli vaziyatda muammoni o'zi qo'yadi va uni talabalar yordamida yechadi. Talabalar muammoni qo'yishda, taxminlarni oldinga surishda va gipotezalarni isbot etishda faol qatnashadi. Dars

izlanishli suhbat, bayon shaklida olib boriladi. Talabalarning faoliyatida o'qitishning reproduktiv va qisman-izlanish metodlari majmui mavjud bo'ladi.

Evristik topshiriqlar metodida yangi qonuniyatlar, qoidalar o'qituvchi tomonidan, talabalarning ishtirokida ham emas, balki talabalar tomonidan o'qituvchi rahbarligida ochiladi. Bu metod evristik suhbat borasida muammoli masala va topshiriqlarni yechish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tadqiqotli topshiriqlar metodi bilan o'qituvchi talabalar oldiga yuqori darajada muammoli nazariy va amaliy tadqiqot topshiriqlarini qo'yadi. Talaba mustaqil mantiqiy fikr yuritib, yangi tushuncha va yangicha yondoshish usulining mohiyatini ochadi. Tadqiqot ishlarini tashkil etish shakllari turlicha bo'lishi mumkin: tajriba, faktlarni yig'ish, doklad tayyorlash, modullash.

Programmallashtirilgan topshiriqlar metodi orqali talabalar maxsus tayyorlangan didaktik vositalar yordamida yangi bilimlarga ega bo'ladilar. Yuqoridagi holatlarda tashkil etilgan muammoli ta'lim orqali ta'lim texnologiyasining rivojlanishiga erishiladi. Bu rivojlantiruvchi o'qitish texnologiyasi talabalarni, bilimlarini orttirish jarayonini rag'batlantiradi va fikrlashning mantiqiy ketma-ketlik stilini shakllantiradi.

Kollej ta'limida eng samarali texnologiyalardan biri hisoblangan muammoli ta'lim o'z mohiyati va mazmuni jihatdan fanlarni o'qitishdagi mantiqiy ketma-ketlikka o'xshaydi. Ketma-ketlik prinsipi shundan iboratki, bunda ta'limning darajasi jihatdan yuqori har bir bosqichida o'qitish mazmunini aniqlashda avvalgi bosqichlarda o'zlashtirilgan bilimlar, ya'ni ta'lim hisobga olinadi. Huddi shu kabi, agar vaziyatdagi yangi bilim avvalgi bilim bilan bog'langan bo'lsa, u muammoli ta'lim texnologiyasi ko'zlagan istiqbolga erishadi deb hisoblanadi.

Demak, muammoli ta'lim birona masalani yechishda avval o'zlashtirilgan bilimlar kamchilik qilib, yangilarini olish kerak bo'lganda yuzaga keladi.

Kollej ta'limida muammoli ta'lim texnologiyasida avval vaziyatli masala yoki topshiriqlar paydo bo'ladi, shundan so'ng o'quv muammosi shakllantiriladi. O'quv muammosining asosiy belgilari: noma'lumlikning mavjudligi, bu

noma'lumlikni topish yangi bilimlarning shakllanishiga olib keladi; noma'lumlikni topish maqsadida (xotirasi, o'quv va ilmiy-texnik adabiyotlardan) izlash uchun talabalarda ma'lum darajada bilimlar zaxirasi bo'lishi lozim. Keyin talabalar muammoni yechish usulini qidiradi, buning uchun turli takliflarni bildiradi, bildirilgan tanqidiy va mustaqil fikrlarni tahlil etish, umumlashtirish asosida ulardan bittasi to'g'ri, deb topilib, gipoteza tarzida qabul qilinadi va isbotlanadi. Izlash muammoning yechimini tekshirish bilan tugallanadi.

Andijon Bank kollejning tajribali o'qituvchilari iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil etishi va o'tkazishda talabalarga tayyor haqiqat va yechimlarni bermasligi lozim. O'qituvchi muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanganda talabalarning bilim orttirish faoliyatini shunday tashkil etishi lozimki, talabalar:

- faktlarni tizimli tahlil etish asosida intellektual qiyinchiliklarni mustaqil hal eta olsin,
- xulosa chiqarish va umumlashtirishni bajarsin,
- qonuniyatlarni ifodalasin,
- olgan bilimlarini yangi vaziyatda qo'llay olsin.

Andijon Bank kollej ta'lim jarayonida yuqoridagi faoliyatlar amalga oshirilsa, talabalarda bilimlarni mustaqil olish, gipotezalarni oldinga surish va ularni isbotlash yo'li bilan aqliy faoliyatning yangi usullarini topish, bilimlarni qo'llanish ko'nikmalarini yaratish, diqqat va tasavvurni rivojlantirish qobiliyatlari shakllantiriladi va bularning barchasi bilim orttirish faolligini rivojlantirishga ko'maklashadi xamda muammoli ta'lim texnologiyasi rivojlanish istiqbollari ga erishadi. Amaliyotda muammoli ta'limning quyidagi variantlarini qo'llash tavsiya etiladi:

- mashg'ulotlarda muammolarni qo'yish va bajarishga qaratilgan muammoli ta'lim;

- mashg'ulotlarning boshlanishida muammolarni qo'yish (qo'yilgan muammoni yo o'quvchilar xal etishadi, yo o'qituvchi o'zi bajaradi) va uning yechimiga asoslanib bilimlarni bayon etishga yo'naltirilgan muammoli ta'lim;

- o'quv materialining bir qismini izohli-ko'rgazmali, o'qitish orqali qolgan qismini muammoli ta'lim shaklida o'rganishga qaratilgan muammoli ta'lim.

Kollej ta'limida hozirgi kunda ilg'or pedagogik texnologiyalardan biri hisoblangan muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llab, nazariy va amaliy dars mashg'ulotlarini tashkil etish, o'zaro dars tahlillarini o'tkazish qizg'in tus olgan. Bu esa o'z navbatida barcha pedagoglar o'rtasida raqobatchilik muhitini yaratish orqali ularni o'z ustida ishlashga, o'quvchilarni esa barcha fanlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirib, iqtidorini namoyon etishga, bilim va ko'nikmalarni mustaxkamlashga zamin bo'lmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, muammoli ta'lim texnologiyasi ta'lim jarayonini amalga oshirishda universal vosita hisoblanadi. Bu texnologiya talabalar vaziyatli masalani izlash faoliyatiga, muammoni ifodalash va yechishga tayyorlangandagina samarali bo'ladi. O'qituvchi biror o'qitish texnologiyasini yoki ularning birikmasini tanlar ekan, darsning maqsadi, o'quv materialining mazmuni, auditoriya xarakteri, uning tayyorlik darajasiga asoslanishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda, ilmiy texnik taraqqiyot xar sohada shuningdek, ta'lim-tarbiya soxasiga ham yangi-yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda. Shu sababli "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'quv tarbiyaviy jarayonlarni ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash zarurligi ta'kinlanadi. Maqsadlarni amalga oshirish uchun ta'limning yangi-yangi modellari yaratilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishni yozish jarayonida ham bugungi texnika rivojlanib borayotgan davrda o'quvchilarni zamon talablariga mos, har tomonlama yetuk bilimli, zukko, qobiliyatli qilib tarbiyalash eng dolzarb vazifalardan biri ekanligini ko'rib o'tildi.

Iqtisodiy fanlarni o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish yo'llarini kollej ta'limiga joriy etish jarayonida ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslari, muammoli ta'lim texnologiyalarining o'рни va ahamiyati, kollej ta'lim jarayonida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish holati tahlili, xamda ta'lim texnologiyasini rivojlantirish yo'llari va muammoli ta'lim texnologiyasida foydalanish istiqbollari o'rganildi.

Andijon Bank kollej ta'limida talabalarning bilimlar tizimini va aqliy faoliyat usullarini samarali o'zlashtirishga, ularda olgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llay olishda va mustaqil bilim orttirish qobiliyatlarini rivojlantirishda ijobiy samara berib kelayotgan ta'lim texnologiyalardan biri bo'lgan muammoli ta'lim texnologiyasi iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida qo'llanilib kelinmoqda. Muammoli ta'lim bu-o'quvchiga beriladigan bilimning qaysi qismini, qanday yo'l bilan berish muammosini samarali hal qilishga qaratilgan o'qituvchi faoliyatidir. Muammoli ta'lim darsda bir vaqtning o'zida o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi harakati bo'lib, u o'quvchi shaxsidagi muhim belgi-ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Muammoli ta'lim- o'quvchilarning erkin fikrlashlariga, o'zining fikrini erkin bayon qila olishlariga va fikrlarini yanada rivojlantirishlariga ta'sir etishdir. Bunda o'quvchi diqqat bilan tinglashi, mustaqil va yolg'iz fikrlashi, jamoa bo'lib fikrlashi, tahlil qilishi, ko'pchilik bo'lib muhokama qilishi va to'plangan fikrni bayon qila olishi kerak.

Hozirgi zamon didaktikasi o'quvchilarning mustaqil – o'quv – bilish faoliyatiga e'tiborni kuchaytirdi, hamda ta'lim texnologiyalarni qo'llagan holda dars mashg'ulotini tashkil qilish talab etila boshlandi.

Iqtisodiy fanlarni muammoli o'qitish jarayonida o'qituvchi avvalo muammoli vaziyat yaratadi, savollar qo'yadi, masalani eksperimental topshiriqlarni taklif qiladi, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokama uyushtiradi. Xulosalarning to'g'riligini tasdiqlaydi, o'quvchilar oldingi bilim tajribalarga asoslanib muammoli vaziyatni hal etish yo'llari to'g'risida o'ylaydilar va takliflar kiritadilar. Oldingi olgan bilimlarini umumlashtirib, xodisalarning sabablarini aniqlagan holda, ularning kelib chiqishini tushuntiradilar, muammoli vaziyatni yechishning eng oqilona variantini qidiradilar.

Biz amaliy jihatdan ko'rib o'tgan muammoli ta'lim texnologiyasi ta'lim-tarbiya muassasalari oldida turgan muammolarni yechishga amaliy yordam ko'rsatadi, xamda o'quvchilarni:

- Mustaqil fikrlashga o'rgatadi va ijodiy qobiliyatlarni o'stiradi;
- Ilmiy bilimlarni mustaqil qo'lga kiritish va amalda qo'llash metodlarini o'zlashtirish imkonini yaratadi;
- Egallagan bilimlar asosida ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllanishiga imkon yaratadi;
- Bilimlarni ijodiy o'zlashtirish, tahlil qilish, amalda qo'llash ko'nikmalari xosil qiladi;
- Ijodiy faoliyat tajribasi tarkib topadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, muammoli ta'lim texnologiyasi ta'lim jarayonini amalga oshirishda universal vosita hisoblanadi. Bu texnologiya talabalar

vaziyatli masalani izlash faoliyatiga, muammoni ifodalash va yechishga tayyorlangandagina samarali bo'ladi. O'qituvchi biror o'qitish texnologiyasini yoki ularning birikmasini tanlar ekan, darsning maqsadi, o'quv materialining mazmuni, auditoriya xarakteri, uning tayyorlik darajasiga asoslanishi lozim.

Bugungi kunda ta'lim muassasasida iqtisodiy yo'nalishda o'qitiladigan barcha fanlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash hamda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda o'qitishning zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan biri xisoblangan muammoli ta'lim texnologiyasidan keng foydalanish hayotiy zaruratligini nazarda tutgan xolda kollej ta'limiga quyidagilarni taklif qilamiz;

- Oliy o'quv yurtlaridagi joriy etilayotgan muammoli ta'lim texnologiyasini o'rta maxsus kasb-xunar kolleji ta'lim tizimiga moslashtirishni amalga oshirish zarur.
- Ta'lim muassasasi moddiy texnik bazasini takomillashtirish kerak.
- Kollejlararo muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llashga qaratilgan tajriba-sinov darslarini tashkil etish ishlarini yo'lga qo'yish kerak.
- Kollej ta'limida o'tiladigan fanlardan darslik, o'quv qo'llanmalarining ta'minotini rivojlantirish zarur.
- Nazariy va amaliy o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalarining turli ko'rinishlaridan foydalangan holda darslarni tashkil etish zarur.
- Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarining ish tajribalarini ommalashtirish va keng miqyosda tadbiq etish kerak.
- Kasb-hunar kollej o'qituvchilarini o'zlari pedagogik, innovatsion va muammoli ta'lim texnologiyasini foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yish kerak.
- Zamon talablari asosida pedagogik texnologiyalar va muammoli ta'lim texnologiyasi asosida darslarni tashkil etish natijasida malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida qayd qilingan takliflar kasb-xunar ta'lim tizimiga tadbiq etilsa, xamda amaliyotda qo'llashga erishilsa, ta'lim muassasasi faoliyatiga va qaysidir ma'noda O'zbekistonda malakali kadrlar tayyorlash tizimi muammolari bartaraf etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. T.: «SHarq», 1997 yil.
2. "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi". T.: «SHarq», 1997 yil.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror va Farmonlari:

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi PF-3080-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 mayda "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 12 martdagi PQ-1730 "Zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarni yanada joriy etish va rivojlantirish to'g'risida"gi Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari:

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 13 maydagi "O'rta mahsus kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 204-sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6-iyundagi "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kompyuter texnologiyalarini joriy etish chora tadbirlari to'g'risida"gi 200-sonli Qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

8. I.A.Karimov. "Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili". T.: «O'zbekiston», 1995 yil.

9. I.A.Karimov. “O‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li”. T. «O‘zbekiston», 1996yil.
10. I.A.Karimov. “O‘zbekiston buyuk kelajak sari”. T. «O‘zbekiston», 1998 y.
11. I.A.Karimov. “Barkamol avlod orzusi”. T.: «O‘zbekiston», 1998 yil.
12. I.A.Karimov. “O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz”. T.: «O‘zbekiston», 1999 yil.
13. I.A.Karimov. “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch”. T.: “Ma‘naviyat”, 2008 yil.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezident I.A.Karimovning 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo‘ljallangan eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi „Bosh maqsadimiz –keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qatiyat bilan davom ettirish” mavzusidagi ma‘ruzasi “Xalq so‘zi”, 2013 yil 19 yanvar.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezident I.A.Karimov “Amalga oshirilayotgan islohatlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini qurish yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir” O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 21 yilligiga bag‘ishlangan ma‘ruzasi. T.: 2014yil
16. Karimov I.A. “2014 yil yuqori o‘shish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi” 2013 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2014 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi, “Xalq so‘zi” gazetasi, 2014 yil 18 yanvar, 13-son

Darsliklar:

17. V.P.Bespalko. “Pedagogika i progressivno’e texnologii”. Obucheniya. M.: POMOR Rossiya, 1995 god.

18. X.T.Omonov, N.X.Xo'jaev. "Zamonaviy ta'lim texnologiyalar va pedagogik mahorat". T.: "Iqtisod-Moliya", 2009 yil.
19. E.N.Pronina. "Psixologiya i pedagogika". M.: "Elit", 2004 god.
20. V.Yu.Pityukov. "Osnovo pedagogicheskoy texnologii". M.: "Gnom-Press", 1999 god.
21. . I.Y.Tursunov. Pedagogika kursi. Darslik. T., "O'qituvchi" 1997 y
22. R.Mavlonova va boshqalar. Pedagogika. Darslik. "O'qituvchi". T. 2001y.
23. G'. Ochilov. "Pedagogika" darslik. T. 2005 y.
24. L.Xo'jaev va boshqalar . Pedagogika. Darslik. TDIU. 2007.
25. B. Xusanov, V. G'ulomov Muomala madaniyati Darslik – T.: "Iqtisod-Moliya" 2009 yil
26. A. Zunnunov "Pedagogika tarixi" Darslik - T. "O'qituvchi" nashriyoti 2009y
27. A. Xoliqov " Pedagogik mahorat" Darslik - T. "O'qituvchi" nashriyoti 2011y
28. J. Xasanboev, va boshqalar "Pedagogika" Darslik - T.: "O'qituvchi" nashriyoti 2011y.
29. G. Niyozava, M. Axmedova "Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari" Darslik T.: "Noshir" 2011y.
30. M. Axmedova "Pedagogika nazariyasi va tarixi" Darslik T.: "Tafakkur-bostoni" 2011y.

O'quv qo'llanmalar:

31. N.Azizxo'jaeva. "Zamonaviy ta'lim texnologiyalar va pedagogik mahorat". T.: TDPU, 2004 yil.
32. R.Ishmuxamedov. "Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari". T.: TDPU, 2005 yil.
33. R.Ishmuxamedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar". T.: "Iste'dod", 2008 yil.

34. J.G.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. "Zamonaviy ta'lim texnologiya asoslari". T.: "O'qituvchi", 2004 yil.
35. A.K.Kolichenko. "Entsiklopediya pedagogicheskix texnologiy" S-Pb.: "Karo", 2005 god.
36. M.Ochilov. "Yangi zamonaviy ta'lim texnologiyalar". Qarshi.: "Nasaf", 2000 yil.
37. D. Ro'ziyeva va boshqalar "Interfaol metodlar mohiyati va qo'llanilishi". "Toshkent" 2013yil
38. N.Saydaxmedov. "Yangi zamonaviy ta'lim texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi". T.: RTM, 1999 yil.
39. U.Tolipov. "Zamonaviy ta'lim texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari". T.: "Iqtisodiyot", 2006 yil.
40. B.L.Farberman. "Progressivnoe – pedagogicheskie texnologii". T.: "Moliya", 1999 god.
41. N.X.Xo'jaev, B.Yu.Xodiev. "Yangi zamonaviy ta'lim texnologiyalar". T.: "Fan", 2003 yil.
42. B.Yu.Xodiev, O.M.Abdullaev. "Yangi zamonaviy ta'lim texnologiyalar". T.: TDIU, 2007 yil.
43. Ibragimov va boshqalar. Pedagogik psixologiya. O'quv qo'llanma. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti" Toshkent 2009 y.
44. L.V. Golish, D.M. Fayzullayeva "Pedagogik texnologiyalarni loyihalash va rejalash" Toshkent 2010y.

Ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruzalar to'plami:

45. "Oliy ta'lim muassasalari ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimining ijtimoiy-pedagogik asoslari" mavzusidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Respublika Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi va Andijon Davlat Universiteti 2012 yil 9-10 iyun

46. «Ta’lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tadbiq etishning nazariy-amaliy asoslari» mavzusidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Namangan texnologik-muhandislik instituti 2012 yil fevral.

47. “Ta’lim tizimida pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish” mavzusidagi ilmiy-nazariy anjuman materiallari. Andijon Qishloq xo’jalik instituti 2014yil aprel.

Gazeta va jurnallar

48. I.A.Karimov “Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim”. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatidagi 2005 yil yakunlariga bag’ishlangan ma’ruzasi «Xalq so’zi» gazetasi, 10 fevral, 2006 y

49. Z.Botirova “Muammoli o’qitish texnologiyasining mohiyati va mazmuni”. Fan:izlanish va yechimlar №3, 2010yil. 34-35b

50. N.D. Maxmudova “Ta’limda muammoli ta’limning o’rni va roli”. Ta’lim texnologiyalari. Ilmiy uslubiy jurnal. №4, 2012yil 17-18b

51. A.B.Isroilova O’rta maxsus va kasb-hunar ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. Ta’lim texnologiyalari. Ilmiy uslubiy jurnal. № 1-2 (32, 33) 2012. 92b

Internet saytlari

52. www.BMI.uz O’qituvchilik mahorati

53. www.Ziyonet.uz Dissertatsiyalar (pedagogika)

54. www.pedagog.uz - O’zbekiston pedagoglar sayti

55. www.referat.uz – Talabalar sayti

56. www.google.ru Jaxon sayti

57. www.andmii.uz – Andijon mashinasozlik instituti veb-sayti

58. Andijon Bank kollejining me’yoriy hujjatlari, pasporti, ma’lumotlari, xisobotlari. 2014 yil.